

392.
B - 99

BOSILANG'ICH SINO'QUVCHILLARI
DIZAYNERLIK TAFLAKKUR
ELEMENTLARINI SIJAKLI ANTIRISH



TOSHKENT

592
b-19

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

E
y
Ko
B

BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARIDA DIZAYNERLIK
TAFAKKUR ELEMENTLARINI
SHAKLLANTIRISH

00-90

Chavdar

TOSHKEENT-2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VA ORTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 372.864-053.5

KBK 74.200.54

B-79

B-79 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dizaynerlik tafakkur elementlarini shakllantirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 116 bет.

ISBN 978-9943-10-869-1

Mazkur monografiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurini shakllantirishning nazariy asoslari, muammomning o'ziga xosliklari, xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati, dizaynerlik tafakkurini shakllantirish va rivojlanitirish muammosining amaldağı holati, uning psixologik jihatari hamda didaktik asoslari yoritilgan.

Biz tonomimizdan ishlab chiqilgan metodika umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilardan badiiy-estetik tarbiya samaradorligini oshiradi. Biz taklif qilayolgan mehnat ta'limi (tasviriy san'at) darslari zamonatalablariga javob beradi hamda o'quvchilarda tabiaiga, narsa-hodisatlarga hissyl munosabatda bo'lisiga o'rgatadi, ularda ijodkorlik, buniyodkorlik hissiyotlarni uyg'otadi.

Monografiya umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari, olyi ta'lim muassasalari bakalavr, magistr bosqichi talabalari, ota-onalar hamda mazkur sohaga qiziquvchi keng omma uchun mo'ljallangan.

XT-ID-1-001 «O'quvchilar dizayn ijodkorligini rivojlanitirishning innovation texnologiyalarini tatbiq etish» innovation tadqiqot loyihasi dolansida tayyorlangan.

Mualliflar: Sh.Q.Mardonov, O.M.Jabborova, Sh.Mardonov,
Sh.Axmedova.

Mas'ul muharrir:
Taqrizchilar:

R.H.Djurayev – p.f.d., prof.
S.K.Annamuratova – p.f.d., prof.;
S.S.Bulatov – p.f.d., prof.

T.N.Qori Nijoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fannari Ilimiy tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2012-yil 30-oktobrdagi 16-soni bilan nashr etildi.

ISBN 978-9943-10-869-1

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

KIRISH

Inson o'zini o'rabi turgan atrof-muhit bilan dialektik birlikda rivojlanadi. Uning hayoti atrof-borliq hamda o'zi yaratgan narsalar olami bilan bog'lanib ketganligining guvohi bo'lamiz.

Hozirgi zamonaviy sharoitda atrof-muhit, narsalar olamining ahumiyyati sezilarli darajada ortib bormoqda va u insonning dunyo-qorashi hamda badiiy-estetik olamiga, eng muhimi, uning ongi-tafakkuriga o'z ta'siri o'tkazib kelmoqda.

Bola ongining shakllanishi va rivojlanishida uning atrofini o'rabi olgan narsalarning ta'siri ortib bormoqda. Bolarning yoshiqida unga atrof-muhitning ta'siri o'z-o'zidan, stixiyali kechadi, lekin hola bu ta'siri ma'lum darajada ilg'aydi, sezadi ham.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, hozirgi zamonaviy sharoitda bolaga (o'quvchiga) yoshligidamoq kam bo'lsada, inson faoliyat to'g'risida, narsalar olamining texnik estetikasi (dizayn) to'g'risida tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi-yoshlarga dizayn to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish va o'quvchilar dizaynerlik tasavvur elementlarini shakllantish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Mehnat ta'limi» (1-9-sinflar), «Tasviriy san'at» (1-7-sinflar), «Chizmachilik» (8-9-sinflar) funlarining imkoniyatlari ancha keng.

Hozirgi kunda ta'limga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'yicha o'quvchini unifitsiyalashitirilgan (birxillashtirilgan) bilim va amaliy ko'nkmalar bilan qurollanitirish, uni sinfdan-sinfga oshirib borish kamlik qilmoqda. Hozirda o'quvchining qo'l bilan iishish ko'nikmasi, uning texnologiyasini bilishi o'quvchi uchun fuqit vosita vazifasini o'tashi mumkin, xolos, uni maqsadga aylanditish uchun esa o'qituvchining ancha ter to'kib, mehnat qilishiga to'g'ri kelmoqda.

Qo'l mehnati o'quvchining estetik tuyg'usi, qiziqish hissini, ongi hamda ijodiy kuchini rivojlanituvchi vosita bo'lib xizmat qilishi lozim.

O'quvchining dizaynerlik tafakkurini shakllantirish, uning badiiy konstrukturlik – badiiy loyihalash faoliyatı jarayonida sodir bo'ladi. Dizayn ijodkorligi elementlarini boshlang'ich sinflarda shakllantirib borib, uni o'rta va oliv ta'limda rivojlantirish maqsadga muvoftiqdir. Dizayn ijodkorligini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida olib borish maqsadga muvoftiq, ya'mi ayrim maktab dizayniga, ayrimlarini bichish-tikish dizayniga, ayrimlarini uy interyeri va hokazolarga qiziqitrib borish maqsadga muvoftiq. Kelajakda shunday tizimga kelishimiz muqarrar. Masalan, Rossiya maktaba-rida shunday amaliyot keng qo'llanilmoida.

Mavzu yuzasidan qator adabiyotlар bilan tanishildi, tahsil qilinadi. Dizayn ijodkorligi muammosi boyicha yozma manbalarning ko'rsatishicha, pedagogika nazariyasi va amaliyoti ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarini, ya'nii o'quvchilarning yangi tiddagi tafakkurini shakllantirish vazifasini qo'ymoqdaki va buni «dizaynerlik tafakkuri», deb atashmoqda. Xo'sh, tafakkur nima? Dizaynerlik tafakkurichi?

Ushbu tushuncha ancha murakkab bo'lganligi uchun uning atroficha keng talqinini O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan oldik: «**Tafakkur** – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshinrishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasinining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oja, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklidagi ifodalananadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'i q ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklidagi namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklidagi namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasini kengayib qolmay, ortirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining tafakkuri, mutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida

o'zida aks etirigan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqqomiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavosita (bilvosita) aks etiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqe va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatining inson uchun yangilikgi, shaxsning faoliyk ko'rsatish darajigiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakkat, ko'rgazmali obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyorli, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlub chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini-o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini-o'zi tekshirish, nazorat qilish, o'zini-o'zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzziy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisobanadi. Psikologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o'rganadi. Hozirgi zamon fanning juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chiqurroq o'qishini taqozo etmoqda»¹.

Tafakkur – inson aqliy faoliyati va ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli hisoblanib, ijtimoiy muhitni, mavjud jarayonlarning vujudga kelish sabablarini va voqelikni anglash vositasi, shuningdek, burcha insonlarning ehtiyojarini qondirish yo'nalishidagi

faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi fikrlar, g'oyalar va qarashlar natijasida vujudga kelgan xulosa va qabul qilingan qarordir.

Dizaynerlik tafakkuri – bu buyum, predmet, narsa va hokazo-larning go'zallik va garmoniya qonunlariga amal qilgan holda har bir buyumda uning foydasi va go'zalligida ko'rishi, fikrashi tushuniladi. Buyumning foydaliligini inkor etib bo'lmaydigan haqiqat bo'lsa-da, uning go'zal sifatlari ham alohida ahamiyat kasbedadi.

Inson o'z ongi, tafakkuri, ijodiy faoliyati asosida o'zida narsa-hodisalarga estetik munosabatni shakllantirishi mumkin.

Badiiy konstrukturlik yoki badiiy loyihalash – mahsulotlarni, narsalarmi (predmet, buyum va hokazolarni) loyihalashda go'zallik va garmoniya qonunlariga amal qilishdir.

Mehnat, tasviriy san'at, chizmachilik darslarida boshlang'ich hamda yuqori sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkur elementlarini ma'lum pedagogik, estetik shart-sharoitlarda shakllantirib va rivojlantririb borish mumkin.

Ushbu muammoning yechimiga tadqiqot jarayonida javob izladik va quyidagilarni bilib oldik.

Badiiy ijodkorlikning falsafiy tomonlari A.A.Adamyan, D.Blagoyev, A.I.Buyev, G.D.Gachev, M.S.Kagan, N.I.Kilxenko, V.P.Kopnin, N.L.Leyzerov va boshqalar tomonidan o'rganilan.

Muammoning psixologik tomonlarini R.Armenyev, V.S.Meylax, A.Peyper va boshqalar tadqiq qilishgan.

Mavzuning pedagogik jihatlarini V.V.Alekseyeva, N.A.Dmitriyeva, N.M.Zubarev, A.A.Melik-Pashayev, N.N.Fomina, V.S.Herbakova va boshqlar ko'rsatib berishgan.

Badiiy-estetik faoliyatning ta'lim va tarbiyaga ta'siri to'g'-risida N.P.Azarov, D.N.Djola, B.T.Lixachev, Z.I.Kalmakov, G.P.Kalishnin va boshqalarning tadqiqotlari mavjud.

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiyada o'quvchi-yoshlarni estetik, nafosat ruhida tarbiyalash masalalari ham mamlakatimiz olmlarining diqqat markazida bo'lgan. Xususan, o'quvchilarni badiiy qadriyatlar bilan tanishitirish jarayonida estetik tarbiyalash A.Mo'minov, M.Aliyev, S.Shermuhamedov-

larning ishlari; B.B.Qodirovning izlanishlarida tasviri san'at vinitasida turbiyaning turli tomonlari ko'rsatilgan; S.K.Annamurova, N.X.Rayzulinalarning monografiyalarida san'at asarlарини о'qилишнинг metodologik jihatlari; N.Kevish, R.Muhamedova, A.Rohymonov, N.Svichinskayalarning tadqiqotlarda badiiy idrok muammolari yoritilgan; munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyalari (O.Musurmonova, M.Xolmatova), tarbiyaning psixologik muammolari (G'.Shoumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, N.Sog'i-nov) va pedagogik masalalari (A.Munavvarov, M.Inomova, D.Xo-liqov) olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan. Shuningdek, olimlarimizdan Sh.S.Sharipov, N.A.Musliimov, S.S.Bulatov, V.E.Alekseyev, R.N.Andrianov, A.I.Vorobej, S.A.Limanskiy, Z.Sh.Sotivoldiyev, I.Ismoilov, O'Q.Tolipov, D.Nozilov kabilar kobs-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantrish, texnik ijodkorlik va dizayn, O'rta Osyo dizayni tariki, talabalarning ixirochilik ijodkorligi, texnik loyihalash va modellasshtirish kabi muammollar yechimi bilan shug'ullanganlar.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'lim sifat va samardorligini mayjud talablar darajasida ta'minlash yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoida. Mustaqililik yillarida bu boroda muayyan yutuqlarga erishildi. Chunonchi, barkamol shaxs malakali mutaxassisi tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarining ilmiy asoslari yaratildi, yangi mazmun va yo'nalishda faoliyat yurituvchi uzuksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakkalariga qo'yiladigan va tartibga soluvchi davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim va o'quvchilar bilimlari sifatini nazorat qiluvchi ko'rsatkichlar, nazorat tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tabbiq etildi;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarini yangi o'quv, o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash muammosini hal etish maqsidda yangi o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlod yaratildi, oyrim darslik va dasturlar qayta ko'rib chiqilmoqda;
- barcha gumanitar fanlar mazmunida ilgari surilgan g'oya-jumi sintez qilish asosida pedagogik ta'lim mazmuni yangilanmoqda;

- ta'lim jarayonining ichki mantig'i va qonuniyatlari o'quvchilarning bilib olishlari va anglab yetishlariga qaratilgan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilmoqda;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari, shu jumladan, boshlang'ich sinflar ham, mavjud talablarga muvofiq malakali o'qituvchilar bilan ta'minlanmoqda.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini o'rganish bu borada muayan kamchiliklar ham borligini ko'rsatmoqda. Ular, nazarimizda quyidagilardan iborat:

- o'qituvchilik kasbiga e'tiborning yetarli emasligi;
 - ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tafqiq etish borasida mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanmaslik;
 - o'quv rejalarini mazmunan yangilashda yetarli samaraga erishilmayorganligi;
 - o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonini samarali yo'liga qo'yishda yetarli tashkiliy, pedagogik va metodik tayyorlarlikka ega emasliklari;
 - o'quv-tarbiyaviy va o'quv-metodik jarayonlarni kompyuter-lashitirish, pedagogik faoliyatda texnik vositalar xizmatidan unumli foydalanmaslik;
 - ta'lim jarayonida shaxsn tarbijalash va uni rivojlanterish tamoyiliining ustuvor emasligi;
 - ta'lim-tarbiyada shaxs omilining ustuvorligiga erishilmaganlik, o'quvchi shaxssi, uning shakllanishiga e'tiborning sustligi;
 - o'qituvchilarning kasby tayyorgarlik darajasining pastligi, ularning aksariyatida ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan texnologiya ijodiy yondashuv malakasining shakllanmaganligi.
- Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning dizayn ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishga xalaqit qilmoqda. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'lida, quyidagilarning amalga oshirishi:
- ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish;

• ta'lim jarayonida shaxsni tarbijalash va rivojlanterish tamoymining ustuvorligini ta'minlash;

- ta'limning shaxsning har tomonlama shakllanishiga yo'nalligini ta'minlash, mazkur jarayonning insonparvarlik va demokratik g'oyalalar bilan boyitilishiga erishish;
- pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi o'qituvchilarning malkasini oshirish va qayta tayyorlashga nisbatan ijimoiy va pedagogik talablarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Ayni vaqtida uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat olib boruvchi ta'lim muassasalarini faoliyatini takomillashirish, uning mazmuniga ilg'or g'oyalarni tafqiq etish borasida belgilangan chora-tadbirlarning amaliy tasdiq'ini ta'minlashga atohida e'tibor qaratish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sirasiga kiradi.

Shuningdek, izlanishlarimiz jarayonida:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi (tasviriy non'at) darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik tafakkuri, dunyoqarashini shakllantirishga e'tiborning juda pastligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarning narsalar garmoniyasi, nar-hodisalarning estetik munosabatini to'la tushunishiga erishilmayorganligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarning tafakkur ijodkorligini shakllantirish, rivojlanterish uchun individual-ijodiy, evristik-didakganlik, ijimoiy-hissiy, o'quv-dizaynerlik shart-sharoitlarning yaratilishiga;
- ta'lim jarayonida hissiy, individual-baholash hamda loyihalash biritinga erishilmaganligi;
- dizayn ijodkorligi bo'yicha maxsus muammoli vaziyatlar tashkil etilmaganligi;
- dizayn ijodkorligining sifati ta'lim jarayonida tahlil qilinib, umumlashtirib borilmasligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari mehnat ta'limi (tasviriy sin'at va b.) darslarda tabiat hodisalari, predmet hamda jarayonlarni o'zları mustaqil o'rganishga o'rgatib borilmasligi ma'lum bo'ldi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida mehnat ta'limi, tasviriy san'at kabi darslarning mazmuni bilan tanishish shuni ko'satdiki, so'z yuritilayotgan jarayoning ilmiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, pedagogik faoliyat mazmuni boyitishga erishish borasida muayyan tajribalarni to'plash yo'iida amaliy harakatlar olib borilayotgan bo'lsa-da, mazkur jarayonning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, ma'lum tizimni shakkantirishga nisbatan ehtiyoj talab darajasida qondirl-magan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida mehnat ta'limi, tasviriy san'at kabi darslarning mazmuni bilan tanishish shuni ko'satdiki, so'z yuritilayotgan jarayoning ilmiy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, pedagogik faoliyat mazmuni boyitishga erishish borasida muayyan tajribalarni to'plash yo'iida amaliy harakatlar olib borilayotgan bo'lsa-da, mazkur jarayonning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, ma'lum tizimni shakkantirishga nisbatan ehtiyoj talab darajasida qondirl-magan.

I BO'LIM. DIZAYNERLIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING ILMY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tafakkur rivojining psixologik-pedagogik jihatlari

«Dizayn» atamasi italyan so'zi «disegno»dan kelib chiqqan. Uyg'onish davrida Yevropada bu so'z bilan faoliyat asosida yotgan loyihiilar, rasmilar hamda g'oyalarini atashgan. XIV-XVI asrlarda «dizayn» so'zi bilan g'oya hamda naqsh, loyihalash va konstruktivlash jarayonlari nomlangan.

Shunday qilib, bugungi kunda «dizayn»ning mazmun-mohiyati yorituvchi tadqiqotchilarning beshta asosiy nuqtayi nazarlari mavjud:

1. Dizayn – bu buyumlarning funksionalligi va ratsional konstruktivligining qonuniy natijasi.
2. Dizayn – bu san'at turi bo'lib, unda inson dizayn mahsulini badiiy buyum sifatida qabul qilindi.
3. Dizayn – bu fanning nomi sifatida talqin qilindi.
4. Dizayn – bu uyg'unlashtiriladigan soha sanaladi va uning yordamida insonga ijobjiy estetik ta'sir ko'rsatish uchun sanoat buyumlarining xossalari o'zaro moslashtiriladi.
5. Dizayn – bu sanoatda ishlab chiqariladigan buyumlar shuning maxsus aspekti (tomoni) sanaladi.

Bizda «dizayn» atamasining (terminining) paydo bo'lganiga

uchsha ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ungacha narsa-buyumlarni loyihi-hish «chadiiy loyihalash», deb atalgan. Buyumlarni yasash texnologiyasi esa «texnik estetika», deb yuritilgan. «Dizayn» so'zi inglezhidan tarjima qilinganda «chizish», degan ma'nioni anglatdi.

Ana shu so'z asosida «dizayner» atamasi yaratilgan bo'lib, undan – loyihiachi rasson, «dizayn-forma» buyumning tashqi ko'riishi, degan tushunchalar kelib chiqqan. Hozir olimlarning ko'pehligi «dizayn» tushunchasi ommaviy sanoat mahsulotlarini loyihalash va ular usosida yangicha ko'rinishdagi biror bir buyumni yaratish horisidagi loyihiachi-rassom faoliyatidir, degan fikmi bildiradi.

Har bir buyumning qiymati ikki narsada, ya'ni uning foydasi va go'zalligida ko'rindi. Buyumning foydaliligini ham, uning go'zal sifatlari ham inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Ana shundan kelib chiqib, buyumning foydali va qimmatli jihatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Sanoat sohasida maxsus ijodiy faoliyat sifatida dizayn ommabop ishlab chiqarish va sanoat inqilobi natijasida paydo bo'lgan hamda u go'zallik va foyda o'rtasidagi nomuvofiqlikni barturaf etish, sanoat va texnika orasidagi chegarani yo'qotishga xizmat qiladi.

Dizayn loyihalash faoliyati bo'lib, yangi turdag'i madaniyat sifatida baholanadi. Bu madaniyat turida ilmiy texnikaviy hamda ijtimoiy madaniyatlar o'zaro birlashadi. Zamona viy sharoitda loyihalash madaniyati o'ziga xos xususiyat kasb etadi, bunda insomning dunyodagi yangi o'mni hamda uning tashqi muhitiga munosabati hisobga olinadi.

Ilmiy texnika taraqqiyotining zamona viy sharoitlarida loyihalash madaniyatini qayta ishlab chiqishda turmush tarzining uzluksi o'zgarishiga mo'ljallanganligi hamda yangi buyum yaratishida faoliyatning barcha tomonlarini – ijtimoiy, iqtisodiy, texnikavly hamda estetik tomonlarini qamrab olishini esda saqlash lozim.

Loyihalash madaniyatida ma'lum qonun-qoidalar hukmiga

asoslangan. Qadimiy madaniyatlar, masalan, o'rta asrlar O'rta Osiyo va Yevropa madaniyati, Xitoy, Hindiston, Yaponiya madaniyati o'niga Uyg'onish davri madaniyati yuzaga keldi.

Loyihalash madaniyatida eski qonun-qoidalar, qoliplarni buzmasdan, yangisini yaratish mumkin emas, bu to'g'rida XIX–XX asr boshlari da dizayn nazariyachilar D.Ryoskin hamda U.Morrislar ham ta'kidlab o'tishgan edi.

Dizayn sanoat va san'at orasidagi nomutanosiblik, nomuvofiqlikni yo'qotishi lozim edi: loyihalash madaniyatida go'zallik va foyda uyg'unlashadi. Shuningdek, dizayn loyihalash faoliyat sifatida jamoa va insomning turli talablarini qanoatlantiradi. Dizayn insomning ijodiy loyihalash faoliyati bo'lib, uning maqsadi kishining ruhiy (psixik) va moddiy talablarini to'liq qanoatlantiradi. Dizayn uyg'unlik muhitini yaratishdir.

Bugungi kunda buyumlarning yuqari iste'mol va estetik xosullarini ta'minlaydigan mutaxassislarini biz dizaynerlar, deb ataymiz.

Dizayn atamasasi tarkibiga quyidagi elementlar kiradi:

- dizayn faoliyat subyekti sifatida: dizayner va iste'molchi;
- dizayn faoliyat obyekti sifatida: dizayn-loyiha va dizayn-mahsulot;
- dizayn muhit – faoliyatning turli tizimlari.

Dizayn obyekt sifatida sanoat mahsulotlari, shahar, qishloq, koxona va yashash muhiti element va tizimlari va hokazolar bo'ilshi mumkin.

Loyihalash obyektiiga ko'ra mutaxassislar dizaynni quyidagi turlarga bo'lishadiilar:

- industrial dizayn – (a) guruhidagi mahsulotlar – mehnat ushob-uskunalar va mexanzmlar, transport va qurol-asboblar; b) guruhiga – ommabop iste'mol buyumlari – idish-tovoq, maishiy uskunalar, mebel jihozlari va boshqalar);
- me'morchilik muhit dizayni (intyerer, me'mor va tashqi mobit dizayni);
- kompyuter dizayni;
- lanshaft dizayni;
- art-dizayn;
- ijtimoiy dizayn;
- kostyum dizayni;
- poligrafiya dizayni.

Dizaynga dastlab sanoatga oid loyihalash ishlari kirgan bo'lsa, undilorda unga yagona namunada yasalagan noyob loyihalar – art-dizayn, elita dizayni ham kirdigan bo'ldi.

Zamona viy jamiyatda dizaynga ommabop aloqa vositasi bilidida qaraladi, chunki u savdo-sotiq orqali ishlab chiqarish va iste'mol qilishni birlashtiradi, talab va taklifi tartibga soladi, aholi xarid qilib yaratishini oshiradi.

Xuldas, dizayn – ishlab chiqaruvchi va iste'molchi orasida marketing va aloqa vositasidir: ijtimoiy tomonidan qaralganda, dizayn – bu buyumlarning tashqi ko'rinishida nufuz timsoli, furovonlik, sayqal berish orqali sanoat va bozorning hamkorligini

boshqaruvchi tizindir. Madaniy tomondan qaralsa, dizayn bu san'atdir. Bugungi kunda dizaynga san'at sifatida qarovchilar soni ortib bormoqda.

Mutaxassislar tafakkur ijodkorligining olti blok omil va jarayonlарини ко'rsatishади:

1. Tafakkur.
2. Idrok va xotira.
3. Xayol va yangilik.
4. Sezgirlik (ichki sezgi) (intuitsiya).
5. Mustaqillik – o'z fikrining (dunyoqarashining) ifodalаниши.
6. Shaxsning estetik hamda axloqiy sifatлari³.

Eng muhim bloklardan biri tafakkur bilan bog'liq blokdir.

1. Psixologik jarayon bo'lib, obyektiv borliqdagi umumiylik va aloqadollikni ko'rsatadi, ifodalaydi.
2. Tafakkur inson xulqida boshqaruvchi funksiyasini bajaradi, chunki u insomning maqsad, vosita hamda harakat dasturi bilan bog'liqligidir.

Ushbu tushunchani «Pedagogik lug'at» quyidagicha izohlydydi: tafakkur – insomning narsa-hodisalarini, obyektiv borliqi umumiyashgan holda uning munosabatlari, aloqalari orqali biliшdir⁵.

O'zbek olimlari tomonidan yaratilgan «Pedagogika fanidan izohli lug'at»da: «tafakkur – insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog'liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oly va aqliy ne'matdir», deb ta'rif berilgan.

Inson atrof borliq hamda o'zi yaratgan narsalar olami bilan shu darajada bog'lanib ketganki, o'zini ularsiz (ular bilan aloqasi) tasavvur etib bo'lmaydi.

Tafakkur – inson biliшhining, obyektiv voqelikni aks ettirish jarayonining yuqori bosqichi. Biliшhining hissiy bosqichlarida bevosita idrok qilib bo'lmaydigan real olam obyektlari, hodisalar bevosita idrok qilib bo'lmaydigan real olam obyektlari, hodisalar

va munosabatlari to'g'risida biliшh ega bo'lish imkonini beradi. Inson tafakkuri ijimo-y-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, amaliy fioliyat bilan chambarchas bog'langan⁶.

Tafakkur faol maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, unda mavjud va yangi (kelayotgan) ma'lumotlarini qayta ishlab, undagi unusly va ikkinchi darajali elementlarini aniqlab, ular orasidagi aloqadorlikni, qonuniyatlarini aniqlovchi biliшh jarayonidir.

Tafakkurning boshqa psixologik jarayonlardan farqi – uning yangi biliшharni ochishga yo'naltirilganligidir. Shunday qilib, tafakkur:

1. Psixologik jarayon bo'lib, obyektiv borliqdagi umumiylik va aloqadollikni ko'rsatadi, ifodalaydi.
2. Tafakkur inson xulqida boshqaruvchi funksiyasini bajaradi, chunki u insomning maqsad, vosita hamda harakat dasturi bilan bog'liqligidir.

3. Tafakkur ijtimoiy jarayondir, uni inson faoliyati davomida ortagan bilimlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Dizaynerlik tafakkuri tushunchasini faol tafakkur mexanizmiz tushunish qiyin. Tafakkurga faol jarayon sifatida qarash kerak, chunki faoliylik boshqa ruhiy (psixik) jarayonlardan farqli o'haroq, tafakkurga xosdir.

Inson tafakkurining faol ahamiyatiga egaligi, uning o'ziga ko'lligi, uning boshqa ruhiy jarayonlar bilan aloqadorligi, aymiqsa, kotin bilan uning rivojanish qonuniyatlarini ruhshunos (psixolog) olimlar tomonidan o'rganilgan (B.G.Ananyev, P.Ya.Galperin, A.V.Zaporozhets, G.S.Kostyuk, A.N.Leontev, Yu.A.Samarin, B.T.Teplov, M.N.Shurdanov, P.Ya.Shevarev).

Ma'lumki, yangi biliшharni izlashda turli usullar qo'llaniladi (algoritmik, evristik usullar).

Tafakkur o'tmish tajribalarisiz faol bo'la olmaydi. Izlanishlar jarayonida chetlanishlar, adashishlar bo'ladi, shu tariqa yangiliklar istiq qilinadi, yangi muammolar, masalalar o'z yechimini topadi.

Subyekt tafakkurining harakatlantiruvchi kuchi uning maqsad va vostitalari orasidagi qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishidadir. Fikr, fikr jarayonining rivojanishi o'ziga xos bo'lsada, ularning

³ Евдокимова Л.Н. Эстетико-педагогические основы развития творческого мышления младших школьников. – Екатеринбург, 1998, 34 с.

⁴ Евдокимова Л.Н. Эстетико-педагогические основы развития творческого мышления младших школьников. – Екатеринбург, 1998, 49 с.

⁵ Педагогический словарь (под ред. Капрова И.А.), т.1-М.: Академия под иту, 1985, 56 с.

⁶ Насанбуюев., Х.То'raqulov va b.Pedagogika fanidan izolib lug'at –Т: 2009, 463 б.

umumiylilik tomonlari ham mavjud. Ushbuni vaziyat muammo-larinining yechimi misolida ko'rib chiqamiz.

Muammoli vaziyat hamisha to'siq faoliyatga to'siq sifatida vujudga keladi. Muammoli vaziyatni yechish, muammoli vaziyatdan chiqib ketish bosqichlarini ko'rib chiqamiz. U quyidagi larni o'z ichiga oladi:

- muammoli vaziyatni anglab yetish;
- nima ma'lum, nimalar noma'lumligini aniqlab olish. Natijada muammo vazifaga aylanadi;
- aniqlash (izlash) doirasini belgilab olish (qo'yilgan maqсад, tajriba asosida);
- farazning paydo bo'lishi;
- faraz to'g'riligini tekshirib ko'rish.

Tafakkur voqeqliki umumlashgan holda aks ettirish jarayoni bo'lsada, unda tafakkur jarayonining mahsulorligi turlicha bo'ldi. Muammoning yangiligi esa uning yechimi yo'nalişlilini belgilab beradi: turli sakrashlar, evristik, ijodiy fikrlashlar, muammo yechimida mantiqiy tahvilni talab qiladi. Bu jarayonda umumlashgan mantiqiy tafakkur bilan birga ichki intuitiv fikr yuritish juda muhimdir. Bu jarayonlarda aniq va mavhum vazifalar, predmetlarning modellarni tahlii qilish, narsa-hodisalarning noaniq tomonlarini izlash intuitiv tarzda amalga oshiriladi.

Faol, mahsuldar tafakkur natijasida psixologik yangiliklarni paydo bo'ladi, ya'ni yangi aloqa tizimi, o'z-o'zini boshqarishning yangi shakkllari, shaxs xususiyatlari, uning qobiliyatları va boshqalar o'quvchining aqliy (siljish) rivojanishiga olib keladi.

O'quvchining mahsuldar (produktiv) tafakkuri unga yangi muammolarni mustaqil yechishga, bilmlarni chuqur va tez egalashiga olib keladi.

O'quvchining reproduktiv tafakkuri esa qolganlarini quyu tiklash hamda o'quvchining o'quv-biluv faoliyatida muhim rol o'yaydi. Bu o'quvchiga yangi materialni yaxshi o'zlashtirishga hamda bilim va ko'nikmalarini amaliyotga ttatbiq etishga yordam beradi.

Insomning reproduktiv tafakkuri hamda qayta yodga olish, xo-tirani tiklash (reproduktiv – tafakkurni qayta tiklash) orqali obyektiy

borliqni bilishda muhim rol o'yaydi. Chunki inson borliqni bilish junnayonida o'zidagi mavjud bilimlarga suyanadi, yangi muammolarni yechishsha esa eski mavjud bilimlarni kamlik qiladi, natijada u o'z tafakkurini fiollaşdırır, yangiliklarni ochadi, uning yangi atoqlarini o'rnataadi va bu yo'l kelgusida ham o'xshash muammolar yechimida unga asqotadi.

Subyekting shu taripa muammo yechimini anglab yetishi, kelgusida ham xotirani, tafakkurni qayta tiklash orqali amalga oshiriladi. Haqqoniy real mahsuldar faoliyat – bu o'quvchining borliqi mustaqil bilishi natijasidir. Tafakkur ijodkorligi – bu tafakkur rivojining eng yuqori pog'onasi sifatida qaratishi lozim, u o'zining yangiligi, originalligi bilan ajralib turadi.

Muammo ustida qator yillar davomida izlanishimiz, o'rganigan adabiyotlar, pedagogik tajribamiz tahilli qator psixologik-pedagogik tamoyillarni (prinsiplarni) ajratib olishimizga va ular o'z havbatida rivojanishuvchi ta'llim tizimining muhim komponenti, shuningdek, o'quvchining intellektual rivojanishida muhim asos vazifasini o'taydi. Bular:

1. Muammollilik tamoyili.
2. Tafakkur komponentlarning garmonik rivojanishini.
3. Aqliy faoliyatning algoritmiq va evristik rivojanishini tamoyili.

Quyida ushbu tamoyillarni tavsiflashga harakat qilamiz.

Muammollilik tamoyili. Muammollilik tamoyili mahsuldar (reprodukтив) tafakkur mahsuli bo'lib, unda yangi bilimlar va yo'nalishlari rivojlantruvchi ta'limming asosiy tamoyili hisoblanadi.

Muammoli ta'linda bilim, ko'nikma hamda intellektual mala-kalarning shakkllanishi o'quvchining muammo-masalalar tizimini o'qituvchi rahbarligida mustaqil yechish jarayonida sodir bo'лади.

O'quvchilar muammoning yangi yechimini izlashlarida o'zlaridagi mayjud bilimlar bilan qo'yilgan vazifa o'rtaida qarama-qarshiliklarga duch kelishadi va natijada yangi bilimlarni izlashiga o'g'ri keladi, bu ularning kelgusida yangi muammolarni o'zlash-tilishdagi imkoniyat doirasini kengaytiradi. O'quvchining faol minsaqil faoliyatini uning kelgusi faoliyatini uchun yangi aloqalar

tizimi, shaxsining yangi xususiyatlarning shakllanishi, fikr dolasining kengayishiga olib keladi⁸.

Muammoli ta'limda o'quvchilar uchun yangi sabab-oqibutli aloqalar, qonuniyatlar, qator muammolar yechimining umumiyyatnayillari, subyekt munosabatlardagi noaniqliklar hamda konkret tadqiq qilinayotgan vaziyat komponentlari orasidagi aloqalar yuqori natija (effekt) beradi.

Muammoning tanlanishi o'quvchilarning mavjud bilimlari hamda qo'yilayotgan vazifaning qay darajada tez bajarilishi hamda o'quvchilarning mustaqil bajarish yo'llari bilan qay darajada tanishitirlganliklariga bog'liq. Shuni esda saqlash kerakki, mavjud bilim, ko'nkmalar muammo yechimida asos bo'lishi mumkin, lekin o'quvchilarni muammo yechimiga yo'naltirish, unga aytilib berish, ko'rsatib berish mutaqo mumkin emas.

O'qituvchi muammoni shunday qo'yishi kerakki, o'quvchilarning o'zlarida mavjud bilim hamda ko'nkmalarining yetishmayotgannini sezsin va mustaqil yechimini topishga harakat qilsin, o'z bilimidagi kamchiliklarni bilib olsin.

Muammoli vaziyatlarni tashkillashtirishda mavjud bilimlar bilan yangi muammo o'rtaсидаги qarama-qarshiliklar, konfliktlar vaziyatlar muhim rol o'yaydi.

Yangi muammo-vazifalar o'quvchini noaniqlikka olib keladi, bunda xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Bu xato-kamchiliklarni tuzatishda o'qituvchi o'quvchiga o'z vaqtida uning sababları, chiqib ketish yo'llarini ko'rsatib bersa, hech qanday xavf tug'dirmaydi.

Yangilikni ochish, muammoni yechishning asosiy yo'lli – «analiz orqali sintez»dir⁹.

Bunda muammo yechimiga uning asosiy va ikkinchi darajali elementlari, yangi aloqa tizimlari, asosiy xususiyatlari, munosabatlari muammo maqsadiga yetishishga qaratilishini taqozo qiladi.

Tafakkur komponentlarning garmonik rivojlanish tamo-yili.

Mahsuldar tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biri – ma'lum mantiqiylar hamda intuitiv komponentlarning so'z mazmunida adekvat

ifodalanmasligidadir. Mantiqiyl tafakkur muammo ing dastlabki bosqichida asosiy rolni o'yaydi, chunki subyekt o'ziga ma'lum bo'lgan harakat usulini, yo'llini qo'llashga harakat qiladi va natijada uni ham sinab ko'radi. Muammo yechimining asosiy bosqichda subyekt yangi usulni qo'llaydi va bunda unga tafakkurning intuitiv-natijali komponenti yordanga keladi.

Intuitiv tafakkur unga amaliy harakat, obrazlardan foydalanish, ko'rgazmali materiallardan foydalanish imkonini beradi.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur muammoning to'liq mazmuni,

uning elementlari, shart-sharoitlarini ko'rish imkonini beradi. Shunday qilib, muammoning yechimi tafakkur komponentlarning o'zaro munosabatlarda – ham tushunchaviy (verbal), ham amaliy, ham ko'rgazmali-obrazli (intuitiv tafakkurda bosh rol o'yaydi) amalga oshiriladi.

Aqliy faoliyatning algoritmik va evristik usullarni shakllantirish tamoyili.

Usbu muammo yechimining ikki usuli bor:

- algoritmik usul;
- evristik usul.

Algoritmik usul orqali bir qator ishlarni amalga oshirganda muammo xatosiz yechimini topadi.

Algoritmik tipdag'i fikriy faoliyat usulini shakllantirish kategorial yechimga olib keluvchi mantiqiyl tahliga asoslanadi, lekin u tafakkurning rivojlanishiga olib kelmaydi. Shunday usullar (yo'llar) kerakki, birinchidan, badiy faoliyatning muhim komponenti sifatida (reprodukтив (xotirada qolganlarini eslash) tafakkurni takomilishitadi. Ikkinchidan, bu usullar, bilmlarning asosiy fondi, «qurollish materiali» hisoblanib, muammo yechimiga xizmat qiladi. Shunga qaramasdan bu usullar ham yetarli sanalmaydi, chunki ular mahsuldar tafakkurga xos emas, ular aqliy faoliyat intensiv rivojlanishining rag'batlantruvchi omili bo'la olmaydi. Uzoq vaqt algoritmik usullardan foydalanish namuna asosida yechimga kelishga o'rgatib, yangi izlanishlarga olib kelmaydi, o'quvchini qolipa tushirib qo'yadi, uni o'ylashga chorlamaydi, huning uchun algoritmik usulni qo'llaganda albatta evristik usul elementlari ham ishtirot etishi lozim.

⁸ Калмыкова З.И. Особенности продуктивного мышления // Вопросы психологии, 1978, №1, 30 с.

⁹ Дильченко О.М. Пути активизации дошкольников // Вопросы психологии, 1987, №1, 93 с.

Algortimik usuldan farqli o'laroq evristik usul mantiqiy bo'lmagan, balki uning mazmuni, mohiyati tahliliqa ko'proq e'tibor beradi. Evristik usul muammoning xatosiz yechimini ta'minlaydi, uni mavhumlik darajasida yechishga harakat qiladi. Unda o'quvchi ham qanday xususiyatlar, belgilari muammoning yechimiga olib kelishini bilmaydi. Ta'lim jarayonida har ikkallasidan ham uzziy bog'iqlikda foydalanish foydadan holi emas¹⁰.

Demak, rivojlantiruvchi ta'larning muhim tamoyillaridan biri unda algoritmik va evristik usullarni maxsus shakllantirishdan iborat.

Zamonaviy maktab ta'limida tafakkurning roli va o'mi ortib bormoqda. Bugungi kun o'quvchisi uchun faqatgina bilim, ko'nikma ha manda malakalarni egallash emas, balki bu bilim, ko'nikma handa malakalarga ijodiy yondashuvni orqali uni amalgalash oshirishi, qiziqishlarini rivojlantrishi, o'quv motivlari hamda o'z-o'zini doimiy takomillashtirishini talab qiladi.

Shunday qilib, birinchini o'ringa o'quvchining aqliy rivojlanishi, uning ijodiy tafakkurni shakllantirish qo'yiladi.

O'quvchining funksiyasi (vazifasi) nafaqt o'quvchini kerakli mazmun bilan tanishtirish, balki uning o'quv faoliyatini uchun sharoit yaratib berishi (faoliyat maqsadini shakllantirish), biliish faoliyatini tashkilashtirish va boshqarib borishi (amaliyotini), natijalarini nazorat qilib va baholab borishi kiradi¹¹.

Demak, tafakkur, birinchidan, o'quv jarayonida o'quv materialini tushunib yetish sifatida vujudga keladi. Ikkinchidan, o'quvchidi shunga monand faoliyat maqsadi shakllanishi kerak. Uchinchidan, o'quv faoliyatning muvaffaqiyatlari kechishi uchun faoliyatni boshqarish, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini baholash, boshqarish, tartibga keltirish kabi usullarni bilish hamda faoliyat tahlili qonuniyatlarini bilishni taqozo qiladi. To'rtinchidan, muammo va vazifalar yechimi ham tafakkurning ko'rinishlarida namoyon bo'лади.

Shunday qilib, tafakkur o'quv materialining o'quv jarayonida tushunilishi, turli muammo va masalalarning yechilishi, maqsad belgilanishi hamda refleksiv (organizmning javob reaksiyasi)

refleksiysi (ya'ni o'z ruhiy holati haqida o'ylashi, xayol surishi, fikr yuritishi, uni tahsil qilishga moyillik) sanaladi¹².

Ijjodkorlik muammosi, uning vujudga kelishi, faoliyat yuritishi, ko'rinishi faylasuflarni, adabiyotshunoslarni, psixologlarni, pedagoglarni, san'atshunoslarni, ma'naviyatshunoslarni qiziqitirib kelgan. Uning (ijodkorlikning) mingdan ziyod tasnifi, ta'rifi bor.

Ijjodkorlik – ijod+kor+lik kabi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, bunda:

= ijod – sifat jihatdan yangi va beqiyos, originalligi va

ijtimoiy-tarixiy jihatdan nodirligi bilan o'zgacha bo'lgan narsa yaratish faoliyati. Ijjod faqat insonga xos, chunki ijodiy faoliyat subjekti bo'lgan ijodkorningga qo'sidan keladi; tabiatda esa ijod emas, balki rivojlanish jarayoni bo'lib turadi.¹³

= -kor- – so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, fors-tojik tilidan o'zleshtirigan, ko'proq ot so'z turkumini yasashda foydalaniladi.¹⁴

= -lik – so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, ko'proq mavhum ot, fe'l, sıfat va boshqa so'z turkumlarini yasashda qo'llaniladi.¹⁵

Ijjodkorlik tushunchasining kompleks modeli, uning klassifikatsiyasi, u to'g'ridagi nazariy qarashlar, uning mazmum-mohiyati indiqotchi V.N. Nikolko tomonidan tartibga solingan.

Ma'lumki, ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo'лади. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliv tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fizikalarining shakllanishi aymen maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta'lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantrish maktab o'qituvcilarining birinchisi galda vazifasidir. Bolalardagi ijodiy

¹⁰ Каммакона З.И. Особенности продуктивного мышления // Вестник психологии. 1978, №3, 43 с.
¹¹ Киган М.С. Человеческая деятельность (спектр системного анализа). – М.: Психология и психиатрия, 1974, 28 с.

¹² Ибниевский С.Л. Исторические философско-психологические труды. – М.: Наука, 1997, 82 с.
¹³ Чиркандар lug'at. – Т.: УзСЭ, 1988, томик, 303-5.
¹⁴ Узбек-русский словарь. – М.: ИИС, 1959, 722-6.
¹⁵ Узбеко-русский словарь. – М.: ИИС, 1959, 722-6.

faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlari yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardag'i ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish - kelajakda yuksak salohiyatlari, ijtimoiy faol, o'tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oлади gan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo'nalişlaridan biri – hur tom'onlama barkamol insomni voyaga yetkazish g'oyasiga mos keladi.

Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, mehnatning u yoki bu ko'rinishida talab qilinadigan qobiliyatlar ish va faoliyat jarayonida paydo bo'lib rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda ijod uchun zarur xususiyatlar, shaxsiy sifatlar bevosita o'smirlarning ijodkorlik faoliyatida rivojlanadi. Ijod – insomning moddiy va ma'naviy ne'matarni yaratish faoliyatidir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'radi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijoda taalluqli masalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko'rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko'rildi, noto'g'ri bo'lsa yangilanadi.

Ijodkorlik – bu faol bunyodkorlik faoliyati bo'lib, uning matijasida yangi qadriyatlari, materiallar bunyod etiladiki, ular o'zining yangiligi, originalligi, noyobligi bilan ajralib turadi. Mana shu talqin negizida tafakkur ijodkorligini tavsiflaymiz hamda tafakkur ijodkorligi tushunchasini shunday ta'riflaymiz:

Tafakkur ijodkorligi – inson faoliyatiga xos jarayon bo'lib, u qilib, hissiyor, inson tajribasi, xotira, xayol, oldindan his qilib, sezgirlik (intuitsiya) kabi tushunchalarni ifodalaydi hamda o'z ichki dunyosini namoyon etishga ishtyoqi orqali borliqni o'zgartirishga qaratilgan subyekting ongli harakati sanaladi. Mahsuldar tafakkur ijodkorlik tafakkurining eng yuqori bonqichi sanaladi.

Mahsuldar tafakkur shunday ruhiy (psixik) jarayon bo'lib, unda subyekting faoliyati yangi, original yechimini topadi.

Mahsuldar ijodkorlik tafakkurning asosiy turlarini ko'rib hayotini yaxshilasiga qaratilgan buyumlar, asarlar va boshqalar yaratiladi.

Ijodkorlikning quyidagi turlari aniqlangan:

1.Jarayonlilik (faylasuflar – J.L.Yakura, M.Ortega-i-Gasseg, A.Bibler, S.X.Rapoport; psixologlar - L.S.Vigotskiy, A.Ya.Duretskiy, O.M.Dyachenko, Yu.D.Polyanov, A.I.Melik-Pashayev, V.O.Pushkin va boshqalar), bunda tafakkur ijodkorligi ruhiy (psixik) jarayonlarning yig'indisi sifatida qaraladi.

2. Faoliyatlichkeit (faylasuflar – Aristotel, M.Nedonsel, G.Siyagvol, D.Dyu: psixologlar – A.P.Nikolko, B.P.Nikitin), bunda ijodkorlik uning ijtimoiy mohiyati nuqtayi nazaridan tafsiflanadi.

3. Aloha mantiqsiz shakl sifatida (A.Shopengauer, F.T.Fischer, Z.Freyd va boshqalar), bunda ijodkorlik aqslizlikning ko'riniishi sifatida ifodalananadi.

4. Inson holati (A.Kamyu, J.P.Satir, A.Malro), inson uyg'unligidoni (kompleks) chiqishga harakat sifatida qaraladi.

5. Subyektning o'z fikr (dunyoqarashi) ifodasi (A.Dyufreni, A.Herzon, A.F.Losev) – nazariyasini bo'lib, bunda ijodkorlik insonning ehtiyoji, uning ichki dunyosining ifodasi sifatida qaraladi.

Ijod korlik – bu faol bunyodkorlik faoliyati bo'lib, uning

matijasida yangi qadriyatlari, materiallar bunyod etiladiki, ular o'zining yangiligi, originalligi, noyobligi bilan ajralib turadi.

Man shu talqin negizida tafakkur ijodkorligini tavsiflaymiz hamda tafakkur ijodkorligi tushunchasini shunday ta'riflaymiz:

Tafakkur ijodkorligi – inson faoliyatiga xos jarayon bo'lib, u qilib, hissiyor, inson tajribasi, xotira, xayol, oldindan his qilib, sezgirlik (intuitsiya) kabi tushunchalarni ifodalaydi hamda o'z ichki dunyosini namoyon etishga ishtyoqi orqali borliqni o'zgartirishga qaratilgan subyekting ongli harakati sanaladi.

Mahsuldar tafakkur ijodkorlik tafakkurining eng yuqori bonqichi sanaladi.

Nazariy-tushunchaviy tafakkurda – inson muammolar yechimida tushunchalarni o'z tajribasi, sezi organlariga tayangan holda ongida tahlil qiladi.

Nazariy-tasviriy tafakkur tushunchaviydan shunisi bilan farq qiladi, unda inson muammoning yechimida tushunchalar, hukm, yuqulovchi fikr chiqarish o'miga tasviri (obrazni) tanlaydi, ya'ni

hukm tasvir orqali chiqariladi. Bunda tasavvur yoki xotiradan olinadi, yoki xayoldan ijod qilinadi.¹⁶

Ko'rgaznali-tasviriy tafakkurda aqliy jarayonlar inson idroki bilan bog'liq holda ifodalanadi.¹⁷

Ko'rgaznali-harakatli tafakkurda tafakkurning o'zi predmetlarni amaliy qayta qurish, tubdan o'zgartirish bilan shug'ul-lanadi.¹⁸

Elementar dizaynerlik tafakkuri yetuk dizaynerlik tafakkuring tuzilish komponentlarni o'zida ifodadlaydi, lekin bunda o'quvchining yoshi xususiyatlari ham inobatga olinadi. Bunday tafakkur alohida ma'lumotlar, alohida muhit, maxsus qidiruv usulida va shakllarida amalga oshiriladi.¹⁹

Bu o'qituvchi rahbarligida amalga oshirilgan shakllantirilgan dizaynerlik tafakkuridir.

Bunday dizaynerlik tafakkurining shakllantirilishini stixiyali, o'z-o'zidan amalga oshirilgan tafakkurdan farqlash lozim, albatta.

Stixiyali dizaynerlik tafakkuri.

Tafakkurning bu turiga tizimsizlik, tizimlilikka harakatning yo'qligi va ongdan uning ifodalamanmasligi xosdir.

Tizimli dizaynerlik tafakkuri.

Mantiqiy harakatlар tizimlilikka intilishdir, unga yangilik, originalilik hamda yechim variativligi xosdir. Boshlang'ich sinflarda, albatta tizimli dizaynerlik tafakkurining yuqori (uchinchisi) bosqichi to'g'risida gapirish erta, bu bosqichga ma'lum ta'lim va umumiy rivojlanish bosqichidan keyin erishiladi.

Ilmiy asoslarning ko'rsatishicha, dizaynerlik tafakkuriga qator parametrlar xos bo'lib, ular quyidagilarni tashkil qiladi:

- asoslik (konstruktivlik);
- maqsadga muvoifiqlik;
- variantilik, egiluvchanlik (moslanuvchanlik);
- sezgi (tuyg'u) usuli, monandlik usuli.

Shunday qilib, tadqiqotimizda biz umumiy o'rta ta'lim muktablar boshlang'ich sinf o'quvchilarida faqat dizaynerlik tafakkur elementlarini shakllantiramiz, uning uchun quyidagi bilan chegaralamamiz:

= **maqsadga muvoifiqlik** – o'zaro aloqalar orqali qo'yilgan maqjud va niyatni amalga oshirish qobiliyati, shu yo'sinda muqindiga erishish;

= **ratsionallik** (aql-idroka asoslangan fikr) – maqsadga erishishda eng ma'qil, tejamkor, qulay yo'ini tanlash;

= **yangilik** va **originallik** – muammo yechimida qulay, nonstandart metod, shakl, vositalarni qo'llash;

= **sezish** orqali, bir-biriga bog'liq guruhi predmetlarning badiiy xususiyatlarini sezish, tushunish tuyg'usi;

= **garmoniya rang-barangligi** (svetovaya garmoniya) – tanglilar bog'liqligi, uyg'unligiga erishish qobiliyati;

= **egiluvchanlik, moslanuvchanlik** – turli-tuman, xilma-xil iloyalarni izbor qilish qobiliyati.

Shunday qilib, dizaynerlik tafakkurining xususiyatlarini quyidagiicha tasavvur qilish mungkin:

- = mantiqiy operatsiyalarni o'lkazish tizimini bilish;
- = faoliyat natijasida yangilikning, originallikning, sezish qobiliyatining, loyihalash qobiliyatining ifodalaniши;
- = narsalarning maqsadga muvoifiqligi va ratsionalligi;
- = narsalar gormoniyasini sezish, his qilish qobiliyati.²⁰

Mahsuldar tafakkurni rivojlantirishni yoshlilikdan boshlash lozim, shuning uchun buni avval mahsuldar tafakkurning yosh xususiyatlari bilan aloqadorligini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvoifiq.

Tafakkur ijodkorligida fantaziyaning roli beqiyos. Umumiy o'rta ta'lim muktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida tansurotlarga ishtyoq katta, lekin ularni tushunib, ongida qayta ishlash, o'zlashtirishga imkoniyatlari kamlik qiladi.

O'quvchi ruhiyatida katta hajmdagi ma'lumot, axborot bilan ularni tushunib olish o'rtasida doimo to'qnashuv vujudga keladi.

¹⁶ Ежикимова Л.Н. Эстетико-педагогические условия развития творческого мышления младших школьников.-Екатеринбург, 1998, 72 с.

¹⁷ Ежикимова Л.Н. Эстетико-педагогические условия развития творческого мышления младших школьников.-Екатеринбург, 1998, 83 с.

¹⁸ Ежикимова Л.Н. Эстетико-педагогические условия развития творческого мышления младших школьников.-Екатеринбург, 1998, 72 с

¹⁹ Малиновская Л.П. Вопросы формирования лизиангерского мышления на уроках изобразительного искусства в начальных классах.-М., 1994, 14 с.

Bola ongidagi bu jarayonlar uning xayoli, tasavvuri asosida tartibga solinadi. Bola tasavvurini doimiy rivojlantrirish kerak bo'jadi.

Maktabgacha yoshdag'i o'quvchining ijodkorligi (bu hali tafakkur ijodkorligi emas) ko'rgazmali-harakatli xarakterga ega bo'lib, u ota-onasining faoliyati, oilaviy tarbiyaga to'liq bog'liq holda rivojlanadi.

Bola maktabga kelganga qadar uning ruhiyatida ma'lum qobiliyat va ruhiy (psixik) holatlar shakllanib bo'lgan bo'jadi. Shuning uchun o'qituvchi birinchi sinfga kelgan bolaning aqliy rivojlanganligi darajasini, uning ruhiy holati, oilaviy tarbiyasi xususiyatlarni bilgan holda uning ijodiy tafakkurini rivojlantririshi lozim. Bosqlang'ich sinf o'quvchisi sinfd'a o'ziga muloqot qilish uchun partner (sherik, do'st) izlaydi.

Bolaining ko'rgazmali-harakatli tafakkuri ko'rgazmali-obrazli tafakkur bilan almashadi, bu yoshda bola ko'p xayol suradi, tasavvuriga suyanadi, bu haqda ruhshunoslarning tadqiqotlari ham mayjud (L.S.Vigotskiy, A.Ya.Dudetskin, O.M.Dyachenko va boshqalar).

Subyektning mahsuldar tafakkuri natijasida uning ongida yangi sifat o'zgarishlari paydo bo'jadi. Ijodiy faoliyat esda saqlanib qolgan narsalar, hodisalarni tiklashisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday muammonning yechimi, yangi bilimlarning o'zlashtirilishi, xotiradagi bilim asosida kechadi, mahsuldar tafakkurning xususiyatlari shu tarica namoyon bo'jadi.

O'quvchilarning mahsuldar tafakkuri ham har xil darajada bo'ladi. Ayrim o'quvchilar yuqori, ayrımlari esa past darajadagi mahsuldar tafakkurga ega bo'ladi. Bunday hollarda butun sinf bilan qanday ishlash kerak va ularning tafakkurini rivojlantrirish mumkin? Bunday hollarda o'rtamiyona o'quvchiga mo'jal olinsa, yuqori darajadagi rivojlanish bilan kelgan o'quvchining tafakkur rivojini susaytirib yuboradi va o'qishga bo'lgan qiziqishi susayib ketadi, shu tariqa ularning aqiliy rivojlanishi ham susayadi. Aqliy rivojlanishdan ortda qolgan o'quvchilar yanada og'ir ahvolga tushib qoladi, ular qiyinchiliklarni yengib o'ta olmaydi, natijada darsni tushunmaydi, ular pedagogik jarayondan chetga chiqib qolishadi.

Mahsuldar tafakkurni bosqlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish va rivojlantrirish uchun aqliy faoliyatining ratsional usullarini tanlash kerak, bu ularning yangi bilimi o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Shakllantirish usullari har xil bo'jadi.

Rivojlantruvchi ta'l'm jarayonida bu usul katta samara berishi mumkin, agarda o'quvchilarga ma'lum erkinlik sharoiti yaratilsa va bu kelgusida umumlashtirib borilsa.

L.S.Vigotskiyning fikricha, mahsuldar tafakkurning bosh mexanizmi hayotiy obraz va madaniy tajribaning o'zaro bog'lanishi va o'zaro bog'lammasligining bir-biriga moslashuvidir.²¹

Umumiy o'rta ta'l'm maktablariда bosqlang'ich sinf o'qivchilari o'qituvchi bilan birga o'qiydilar, ta'l'm oladilar. Ular birgalikda uzoq davomli faoliyat dovonlarini birgalikda o'taydilar va ijodkorlikni egallaydilar.

Psixologlar tomonidan uchtadan o'n uchtagacha tafakkur ijodkorligining shakllanish usuli, yo'llari ko'rsatilgan. Psixologlarning fikrlari, nuqtayi nazarida umumiylilik, o'xshashlik anchani tashkil qildi. Jumladan, ko'pehilik psixolog-olimlar birinchi bosqich sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

- ushbu jarayonga tayyoragarlik bosqichi (V.N.Pushkin);
(D.Dyum, A.Osbori, D.Rossmen);
- muammo, fikr paydo bo'lishini tushunib yetmoqlik
- atrof-muhit, axborotlarini idrok etish (L.T.Levchuk);
- masalani shakllantirish uchun masala qo'yish, kerakli ma'lumot toplash, bilim, ko'nikma, malakalar (A.N.Luk);
- vizual tafakkur (ko'z bilan qabul qilinadigan) obrazini yaratish, bunda vizual tafakkur - mavhum (abstrakt) tafakkur va amaliyot o'rjasidagi bog'liqlik (V.I.Jukovsky, D.V.Pivovarov). Ushbu tasnidan ko'rinib turibdiki, tafakkur ijodkorligining birinchi bosqichi faoliyatning ikki jarayonini o'zida mijassamlayapti - idrok hamda fikr tug'ilishi. Ushbu bosqichlarni ko'rib chiqamiz.

²¹ Голуянов Ю.А. Перспективы реализации идей Л.С. Выготского в детском художественном творчестве // Вопросы психологии. 1997. №1, 35 с.

1. Tayyorloq bosqichi.

Bu bosqichda ikki masala hal bo'ldi: materialni to'plash va uni tayyorlash hamda badiiy shaklni yasash, qurish usullarini bilib olish.

Erkin ijodkorlik nafaqat yangi materiallarni to'plash, balki ularni tayyorlash, muhimlashtirish, faollashdirishga imkon beradi. O'quvchilarda bu qobiliyat har xil bo'ladi: ular faqat namuna asosida, o'qituvchi ko'rsatmasi asosida faoliyat yuritishadi. O'quvchilar o'zlarining hayotiy tajirbalarini mehnat ta'limi bilan bog'lamaydilar, shuning uchun ijodkorlik ularda rivojlanmaydi.

Ma'lumki, topshiriq-namuna o'quvchilar erkin ijodkorligini yo'qqa chiqadi, uni ma'lum qolipga solib qo'yadi.

Ayrim o'quvchilarda ijodkorlik juda rivojlangan bo'ladi, ularga izlanish yo'lini ko'rsatib bersang, qolganini o'zi eplaydi, ayrimlari buning aksidi.

Dizaynerlik faoliyati to'g'risida fikr yuritish uchun o'quvchida dizayn to'g'risida elementar tushuncha bo'ishi kerak, shundagina uning dizaynerlik tafakkurini rivojlantirish to'g'risida gapirsa bo'ladi. Aks holda qilingan hamma harakat befoyda.

Ijodkorlikning ikkinchi bosqichini J.Adamar va V.N.Pushkinlar g'oyaning, fikrning pishib yetilishi, yashirin inkubatsiyasi davri sifatida tasniflashadi. Shunga yaqin nuqtayi nazarlarni biz A.N.Lukda ko'ramiz, uning fikricha, ikkinchi bosqich qo'shimcha ma'lumotlarni izlash, to'plash bosqichidir.

D.Dyum, D.Rosmenning fikricha, bu davr qo'yilgan vazifalarni tahlil qilish davridir.

V.I.Jukovskiy, D.V.Pivovarovlar ham ushu bosqichni ijodkorlikni tahlil qilish davri sifatida baholaydilar.

A.Osbori esa ushu davrga tahlildan tashqari yana rejalashtirilgan fikri umumlashtirish hamda loyihalashtirish jarayoni sifatida qaraydi.

Shunday qilib, ikkinchi bosqich barcha psixolog-olimlar tomonidan fikrash jarayoni (mantiqiy tafakkur) sifatida tavsiyanadi.

2. Badiiy shakl yaratish usullarining o'r ganilish bosqichi.

Ikkinchi bosqichda xayolning borliq bilan aloqa shakliga tayyor xayoliy mahsulot sifatida qarash lozim. Erkin ijod qilish

uchun o'quvchilarning borliq voqeasi, hodisalarga estetik baho berish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Tafakkur ijodkorligining uchinchi bosqichi psixolog-olimlar tomonidan turlicha ifodalanadi. Jumladan, J.Adamar, V.P.Pushkin, A.N.Luk va boshqalar tafakkur ijodkorligi faoliyatini ichki his, sezgirlik, ilhomlanish, sho'xlik sifatida ifodalaydilar.

Ushbu bosqichni analitik axborot nuqtayı nazardan D.Rossmen, V.I.Jukovskiy, D.V.Pivovarovlar baholaydilar, bunda obyektni o'rganishda olingan ma'lumot bilan tahlil ostida ma'lumotlarning o'zaro nisbatlari ifodalanadi. Bu bosqichni D.Dyun, D.Rosmenler yangi g'oyalarining tug'ilishi va olg'a surilishi bilan bog'lashadi.

3. Mo'jal olish bosqichi.

Mo'jal, niyat, istak, xohish o'quvchining faoliyatini boshlab berishi, boshqarishi lozim. Lekin o'quvchining niyat qilish, mo'jal olish qobiliyat nafaqat individual harakatlarga, balki yosh xususiyatlariha ham egadir. Ko'pchilik o'quvchilarda niyat, mo'jal tarqoq, og'zaki sanashdan nariga o'tmaydi, ular asar tuzilishi (kompozitsiyasi) tushunmaydi. Niyat ham bo'lg'usi obraz tuzilishi (kompozitsiyasi) kabi faoliyat jarayonida shakllanadi, shuning uchun bu obrazni o'ylab topilgan so'zlar vositasida o'zgartirib bo'maydi.

O'quvchilarning niyat qilish, mo'jal olish qobiliyatini rivojlantirish uchun qaysidir obraz shaklida mo'jal olgan o'quvchining yutuq va individualligi, boshqalardan farqi, mo'jahnning originalligi misolda tahlil qilinadi.

4. Ijodkorlik bosqichi.

Bu bosqichda o'quvchi o'zining butun e'tiborini, harakatini ijodga qaratadi. Ijodkorlikning ta'liming boshqa shakllaridan farqi shundaki, unda o'quvchi bilim va tajribani olmaydi, yig'maydi, balki uni beradi. Shuning uchun L.S.Vigotskiy ogohlantiradi – hech qachon o'quvchining xatosini to'g'rilamaslik yoki uni «to'g'ri» chizishga, ijod qilishga majburlamaslik kerak.

O'quvchining ijodkorligida o'qituvchining ishtiropi, uning imkoniyatlariha ishonish, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash,

uning g'abalabaga erishishiga ishonch bildirish bilan chegaralanishi lozim. Demak, o'quvchining ijodiga aralashmaslik kerak.

O'quvchining dizaynerlik faoliyatida biz yuqorida ko'rgan ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi bosqichlarni biriktirsak loyihalash kelib chiqadi. Loyihalash – bu ijodiy jarayon bo'lib, qator ketma-ket bosqichlarni qamrab oladi. Ullardan ikkitasi o'zaro farqlanadi:

– loyihalashning qurishi;

– loyihalashning materialini moddiylashtirish orqali loyihalash narsaga (objektga) kelgusida erishish mumkin bo'lgan bir necha varianti taklif qilinadi. Narsalarni loyihalashda maqsadga asos solinadi va bu uning asosiy komponenti hisoblanadi. Maqsad belgilamaq, faraz qilmoq – bu juda murakkab kompleks jarayon hisoblanadi. Bu nafaqat tayyor mahsulot tahlili, balki uning boshqa konstruksiyalaridan farqi, ma'lum ma'noda tobelligi hamdir. Maqsad belgilamoq muammo yechimida ongli qidiruv hamda unga ijodiy yondashuvni taqozo qiladi. Bu faoliyatning qiyinligiga qaramasdan boshlang'ich sinf o'quvchilar ham bajarish imkoniyatiga ega.

Mahsuldar tafakkurni rivojlanirishda mehnat ta'llimining imkoniyattari katta. Badiiy konstrukturlik, ya'ni dizayn elementlari darslarida badiiy shakl, ritm, simmetriya, kompozitsiya haqidagi tushunchalar elementlari berib boriladi²².

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim mabtabalarida boshlang'ich sinif o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatlarini xususiyatlarini o'rganishda quydagilarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz: psixologik jarayonlar mahsuldar tafakkurni shakllantirishning asosi va zamindir.

O'quvchilarning mahsuldar tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish ularning quyidagi sifatlarni rivojlanishiga asos bo'ladi:

– yaxlit, tirishqoq iroda;
– iroda turlari, shu jumladan, bolaning hayotiy tajribasi;
– mantiqiy operatsiyalar: analiz, sintez, umumlashtirish, sinflashtirish;

– obrazlarni fikran bog'lash, xayoldan o'tkazish, xayolda obrazlarni fikran bog'lash yo'llarini bilish;

– intuitsiya, ichki his, sezgirlik;

– shaxsning aqiy, estetik, axloqiy sifatlari, shuningdek, boshlugan ishni oxiriga yetkazish hamda baholash qobiliyati va boshqalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining ko'rsatib o'tilgan sifatlari o'quv-tarbiya jarayonida badiiy konstruksiya elementlarini o'rgatishda shakllantirilib va rivojlanirib boriladi, bunda albatta pedagojik-estetik shart-sharoitlarning o'rni katta. Bu sifatlar ijodkorlik folyatining baracha bosqichlarda – idrok etish, g'oyaning paydo bo'lishi, fikring tug'ilishi, ichki his-hayajon, faoliyat jarayonlarda shokllantirilib, rivojlanirilib boriladi. Dizaynerlik tafakkurning anony xususiyatlarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

– mantiqiy operatsiyalarini tizimli amalga oshirish qobiliyati;

– yangilikning xosligi, originalligi, sezish hamda loyihalash qobiliyati;

– narsalarning maqsadga muvoofiqligini sezish qobiliyati;

– narsalarni estetik yasay bilish qobiliyati va boshqalar.

Gop tafakkur ijodkorligi xususida borar ekan, shuni esda tutish konki, ijodkorlik estetik kategoriya bo'lganligi sababli ijodning takomillashuvi va rivojlanishida atrof-muhitning estetik omillari muhim rol o'yaydi, buni o'z vaqtida faylasuflar, psixologlar hamda san'atshunos olimlar isbotlaganlar.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning mahsuldar tafakkur ijodkorligini rivojlanirish uchun o'quv-tarbiya jarayonida estetik, psixologik hamda pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro aloqasini ta'minlash, sharoit yaratish lozim bo'ladi.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini shakllantirishning pedagogik-estetik shart-sharoitlari

Pedagogik-estetik shart-sharoitlar ikki yoqlama tuzilishga ega – pedagogik va estetik shart-sharoitlar.

Pedagogik shart-sharoitlar pedagog olimlar Ya.A.Komenskiy, A.S.Mukarenko, A.F.Xarlamova, Yu.B.Babanskiy, B.P.Nikitina,

²² Калнина Г.П. Использование элементов дизайна на уроках труда // Начальная школа, 1989, №9, 28 с.

Sh.A.Amonashvili, Dj.Smid va boshqalarning ilmiy asarlarida keng yoritilgan.

Estetik shart-sharoitlar mazmuni dizayn nazariyasi va atrof-muhitga ergonomik talablar tashkil qiladi. Bu soha olimlari: V.P.Zinchenko, V.P.Glazichev, I.P.Yurov, I.M.Dyomina, L.M.Xolmanskij; respublikamiz olimlaridan S.X.Fayzulina, S.K.Annamurotova va boshqalar.

Maktab hayotiga kiritgan hamda estetik va pedagogik shart-sharoitlarni bir tizimga solgan kishi R.Shteynerdir. V.A.Karavoskiy, N.L.Arinina, G.B.Kobanidze, S.A.Anasinalar ham estetik va pedagogik shart-sharoitlarni sintezlab, o'quv-tarbiya jarayoniga kiritishgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotimiz uchun nazariy asos rolini o'taydi.

Avvalo pedagogik shart-sharoitlarning umumiy o'rta ta'limg maktablari o'quv-tarbiya jarayoniga kiritilishi, tajribadan o'tkazilishini ko'rib chiqamiz.

Subyektiv shart-sharoitlar. Umumiy o'rta ta'limg maktabalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini rivojlantirishga yordam beruvchi subyektiv omillar ham ikki yoqlama tizimga ega. Bir tomondan, o'quvchining bilim, ko'nikma, malaka (BKM) hamda uning subyektiv-individual, fizologik, psixologik hamda intellektual xususiyatlari bo'lsa, ikkinchi tomondan, unda pedagogning individual-psixologik xususiyatlari yotadi.

Bu kabi shart-sharoitlar rang (tus) ajrata bilish estetikasi asosida yaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini rivojlantiruvchi omillarga, quyidagilar kiradi: xotira, idrok, mantiqiy tafakkur, gap, intuitsiya, intellekt, his qilish, boshlagan ishni oxiriga yetkazish hamda uni baholash qobiliyati.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini rivojlantiruvchi subyektiv omillar o'quvchilarining umumiy rivojlanishi, ularning ta'lim-tarbiyasida qo'llaniladigan boshqa omillardan farq qilmaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'quvchilarning tafakkur ijodkorligini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi subyektiv omillarga individual ijodiy omil sifatida qarashimiz mumkin. Bu kabi omillar o'zining ijobiy

natijasini nafaqat o'quvchi hamkorligida, balki obyektiy-subyektiv shart-sharoitlar yaratilganda ko'rish mumkin.

Individual ijodiy sharoit o'zida ikki tomonni mujasanla shitiradi: o'quvchini va o'quvchining estetik tashqi ko'rinishi, ya'ni muqsadga muvofiq kelishi, atrof-muhitga mos garmoniya, estetik harmoniya, kasbiy-axloqiy, o'quvchining psixologik-axloqiy sifatlarini va boshqalar o'quvchining tafakkur ijodkorligini rivojlantirishga hamda uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam berishi lozim.

Pedagogning ma'naviy ko'rinishi uch qismidan iborat: axloqiy shifalar (mehribonlik, tartibiliylik, odobrililik, halollik, poklik), estetik ong, borliqqa estetik munosabat, estetik ishonch, havas, ishtiyoq, madaniyat, dunyoqarash, mahorat (yuksak aql, professionalizm, ottitizm, tafakkur ijodkorligining rivojlanganligi, ijoga ishtiyooqning mayjudligi va b.).

Shunday qilib, pedagog o'quvchilar uchun tafakkur ijodkorligining namunasi, timsoli sifatida gavdalananadi va ularning o'quvchiga o'xshashi uchun harakati hamda ijodiy faolligining o'sishiga olib keladi.

Subyektiv-obyektiy shart-sharoitlar.

Subyektiv-obyektiy omillar ijodkorlikning rivojlanishi, sinf jumonsida toza muhitni, o'quvchini bilan o'quvchining ijobiy va ijodiy hamkorligiga imkon beradi.

Umumiy o'rta ta'limg maktablari bu omillar jamoada do'stona muhit, muloqotning demokratik usuli, emotsiyal-psixologik qulaylik, har bir boshlang'ich sinf o'quvchisiga ijodiy tanlash ekinligini beradi.

Estetik munosabatlar.

Estetik munosabatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining quyidagiCHA estetik ta'sirlanishlarda ko'rindi: hayajonlansh, faoliylik, ekinlik, hurakatlar garmoniyasi, ritm, kelajakka ishonch, kelishuv, ijodiy fuoliyatni analga oshirish, shaxslararo estetik munosabatlar, sloqiy-estetik normalar va boshqalar. Shuningdek, estetik munosabatlar quyidagilarda: do'stilik, o'zaro hurmat, ishonch, muloqot quvonchi, halollik va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Jamoaviy tarbiya tamoyillari, turlari.

Tarbiyaming ushbu tur va tamoyillari buyuk pedagog A.S.Makarenko tomonidan chuqur ishlab chiqilgan. U bolalar jamoalarida tarbiya masalalarining yechimini ko'rsatib bergan. Va quyidagilarda namayon bo'jadi:

1. Yaxshi kayfiyat: doimiy ko'tarinki ruh, faoliyatga tayyorlik, yuqori kayfiyat.
 2. Har bir bolaning o'z qadr-qimmatini sezishi.
 3. Masxara, ahmoqlik, zo'ravonliklardan himoyalanganlik.
 4. Tormozlanish qobiliyatti.
 5. Jamoaning chirolyi ko'rishishi: rang, kostyumlar, xona tozaligi, oyoq kiyimlari tozaligi.
- Yuqorida ko'rsatilganlardan ikkinchi va uchinchi belgilar janoa shakllanishida ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Jamoada bir-birini to'liq tushunish, do'stona munosabat va muhit o'mnatish uchun o'qituvchiga ter to'kib mehnat qiliшга to'g'ri keladi.
- Jamoada do'stona munosabat, bingalikda egallagan yutuqlardan g'ururlanish muhitini yaratish, darsda, umuman ta'lim jarayonida ushbu jarayonlarga boshlang'ich sinf o'quvchilarini tayyorlab borish lozim va shart. Bularning barchasi subyektiv-obyektiv shart-sharoitlar yoki omillardir.
- Yuqorida qayd etilganlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining anglash faoliyatini faollashtiradigan pedagogik omillar sanaladi va ular o'quvchilarning tafakkur ijodkorligining asosi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, bu holat maktuba o'quv-tarbiya jarayonida sodir bo'лади.
- D.B.Nikitinning fikricha, bolaning ijodiy faoliyatini rivojlantrishini maktabgacha davrdan boshlash kerak.
- Tadqiqotchi-olim D.B.Nikitin omillar sifatida:
- bola tug'ilgandan uning tafakkur ijodkorligiga asos tayorlash;
 - bolaga ijod qiliш uchun muhit, shart-sharoit yaratish;
 - ijod jarayonni tasnididan kelib chiqib, butun kuch-imkoniyatni uni egallashga qaratish;
 - bolaga ijod erkinligi, tanlash erkinligini berish, dars davriyilagini nazorat qilish;

= bolaga do'stona yordam berish, uning rayini qaytarmaslik.

Yuqorida qayd etilganlar tafakkur ijodkorligini shakllanuvchi va rivojlantruvchi subyektiv-obyektiv omillar edi, bu omillar dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'lum emotional-psixologik quayliят beradi va o'quv-tarbiya jarayonida rivojlantriradi, shuning uchun uni yana ijimoiy-emotsional omil ifatida qarashimiz mumkin.

Shunday shart-sharoitning yaratilishi ma'lum shakl va matematiklardan foydalananisiga asoslanadi, ularning yordamida jamoada korakli do'stona muhit yaratiladi. Shuningdek, o'quvchining tafakkur ijodkorligini shakllantirishda o'quv-tarbiya jarayonining an'anaviy shakl va metodlaridan tashqari o'qituvchi-pedagoglarning ko'p yillik tajribalari ham inobatga olinadi:

- ko'rsatish-tushuntirish, yoki taqriz (retsensiya) metodi (mu'ruza, hikoya, tushuntirish va boshqalar);
 - esga tushirish orqali bilimni amaliyotga joriy etish metodi;
 - o'rganilayotgan materialni muammoli bayon qilish metodi;
 - tadqiqotchilik metodi, o'quvchilar muammoni mustaqil yechadi.
- Akademik Yu.K.Babanskiy metodlar turkumini uch asosiy surʼuhiga bo'лади:
 - o'quv-biluv jarayonini amalga oshirish va tashkillashtirish metodlari;
 - bilish faoliyatining sabab va rag'batlantirilish metodlari; nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.
- Akademik M.I.Maxmutov metodlarni uch asosda sinflash-hiladi:

- ta'limning umumiy metodlari: monologik, namunaviy, diologik, evristik, loyihali;
 - b) o'qish metodlari: axborot-informatsion, tushuntiruvchi, instruktiv, majburlovchi, rag'batlantiruvchi;
 - d) reproduktiv, amaliy izlanuvchi, tadqiq qiluvchi, bajaruvihi metodlar.
- Bu metodlar o'quv-tarbiya jarayonining har ikkala tomonini ham qamrab oladi: pedagog faoliyati hamda o'quvchi faoliyatini va

shu tariqa butun o'quv-tarbiya jarayonining metodologiyasini o'z ichiga qamrab oladi.

Yu.A.Babanskiy hamda M.I.Maxmutovlar taklif qilgan metodlarga ijodiy faoliyatini amalga oshiruvchi quyidagi metodlarni qo'shish mumkin:

- pedagogning individual-shaxsiy ijodiy ibrat metodi;
- evristik-namoyish metodi – bunda hikoya, kartina, ma'ruza va boshqalarini pedagog emas, o'quvchi tomonidan taqdim etish metodi;
- psixologik trenning metodi;
- ko'rish, estetik, ta'm bilish kabilarni bir vaqtda ifodalash metodi.

Tafakkur ijodkorligining o'ziga xosligi ushbu jarayonlarni taskil qilishda ham o'ziga xos tashkillaشتirishni taqozo etadi.

O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini rivojlantirishning an'anaviy shakllariga: dars, sayohat, fakultativlar, uyga vazifa, sinfdan tashqari ishlar, olimpiadalar, studiyalar, ko'rgazmalar, konkurslar, konsertlar va boshqalar kiradi. Tafakkur ijodkorligini rivojlantirish uchun aynan ushbu jarayonlarni faollashiruvchi faoliyat shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Jumladan, **minidars** (5-10 daqiqali): ijodiy fantaziya mini-darsi; aytil berish, yo'l ko'rsatish darslari; tortishuv darslari, musiciqiy, badiiy teatrlashgan taqdimotlar, tafakkur ijodkorligini rivojlaniruvchi o'yinlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan obyektiv-subyektiv omillarni umum-lashirgan holda ta'kidlash mumkinki, ushbu guruh o'zida, bir tomondan, o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti, jamao jipsligi, birligi, sindfa do'stona muhit yaratadi – bular ijtimoiy-emotional omillar bo'lsa; ikkinchi tomondan, o'quvchilarning tafakkur ijodkorligini rivojlantiruvchi turli-tuman metod va usulalarini qo'llanishi mujassamlashtiradi – bularning barisi evristik-didaktik omillar, shart-sharoitlarni taskil qiladi.

Shubhasiz, bu shart-sharoitlar jamoадаги o'quv-dizaynerlik hamda ijodiy faoliyat mavjudligidan, shuningdek, estetik muhit shart-sharoitidan, muhitdagi estetik mazmunga egaligidan darax beradi.

Bundan tashqari, faoliyatning ijodiy shakl va metodlari tabiiy muhitning estetik sifatlaridan, estetik qadriyatlardan hamda inson qo'shi va ongi ila yaratilgan narsalar sifatidan ko'rgazma-iliustratsiyali material sifatida foydalanishni taqozo qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflarning o'quv-tarbiya jarayonida, pedagogik faoliyatida ijodiy shakl va metodlar estetik mazmunga singdirisa natija o'zining originalligi, obrazifligi, yangiligi, emotsiyonalligi bilan ajralib turadi.

O'quv-tarbiya jarayonining estetik mazmun bilan boyitilishi, o'quvchilarini yangi tafakkur ijodkorligiga yo'naltiradi.

Jamoda ijodkorlikning paydo bo'lishi, faoliyatning yangi shakl va metodlari bilan boyishi nafaqat ijtimoiy-emotsional va evristik-didaktik, pedagogik shart-sharoitlar bilan, balki estetik-pedagogik omillar bilan boyiganligidan ham darak beradi.

Ijodkorlik – estetik kategoriya bo'lib, u ijodiy faoliyatning umumiyy qonuniyatlarini o'rganadi. Bu omillar (shart-sharoitlar) nafaqat o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini oshiradi, baalki ularning estetik turbiyasi, nafосати sıfatini oshiradi, ijodkor shaxsnı tarbiyataydi.

Navbatdagi omillar guruhi pedagogikada obyektiv omillar deb yuritiladi. Unda ta'lim va tarbiyaning eng ma'qul, eng qulay shakllari hamda obyektiv dunyoning estetik sıflatları mujassam-lashtirilgan. Ularni o'quv-dizaynerlik omillari deb yuritishadi.

Bu guruhning ikki tomoniga: maktab muhitining ergonomik va estetik tomonlariga e'tibori qaratish zarur.

Ma'lumki, binolarning ichki bezagi, asbob-anjomida rangning o'mi o'zgacha. Xona ichini badiiy did bilan bezash mumkin, bunda uning asosini yoki ranglar turli-tumanligi (kontrastligi), yoki uning aksisi, nazokatli, yumshoq tusga o'tuvchi ranglar tanlangan bo'lishi mumkin.

Dizaynda ranglar muammosini ko'rib chiqqamiz.

Ranglarning hayotimizdagi roli katta.

Rang dunyoni anglab yetish va tartibga solish vositalaridan biridir. U har doim buyumming tabiiy alomati bo'lib xizmat qilmaydi. Ammo qandaydir g'oyananig mavjudligini bildiradi.²³

Rang va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ularning borligi garmonik yoki disgarmonik holatga olib keladi. Shunga qarab idrok emotsionalligi ham o'zgaradi.
«Rangni loyihalash» tushunchasi fanga arxitektor A.V.Yefremov tomonidan kiritilgan.

Nazarimizda, ushbתכו atamadan dizaynshunoslikda ham foydalansa bo'ladi.

Rangni loyihalash deganda biz loyihalash faoliyatning bir turini tushinamiz va u turli obyektlarning turli muhit, shart-sharoitlarda ranglar uyg'unligiga erishishiga yo'naltirilgan (koloristika) bo'ladi.

Dizaynshunoslikda ranglardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyaga muhtojlik sezilmoxda.

Turli tarixiy davrlarda rangga, rang ramzlariga munosabat turilcha bo'lган. Aytaлиk, ko'chmanchi qabilalar yorqin to'q ranglarni ma'qul ko'rgan bo'lsalar, o'troq xalqlar och, murakkab ranglarni yoqtirishgan.

Tarixda ma'lum ijtimoiy tabaqalashni ifodalashda ham rangdan foydalanishgan. Jumladan, qadimiy Rimda qirmizi toza plashni faqat imperator kiyishga haqli bo'lган. Dindorlarning kiyimida ham farq mayjud, masalan, ingliz puritanlari qora kiyinsalar, katoliklar, aksinchcha olachipor kiyim kiyishgan.

Ranglar doimo jins va yosh farqini bildiruvchi vosita vazifasini ham o'tagan. Kichik yoshdagi bolalar kiyimi nozikroq tusli bo'ladi, o'smirlar kiyimi kontrast ranglarga boy bo'lsa, kattalar kiyimi to'qroq rang tuslari bilan ajralib turadi. Ayollar kiyimi erkaklar nikiga qaraganda yorqinroq va ko'p rangli bo'ladi.

Jahon sanati taraqqiyotida borliq ranglarni aks ettrishning turli ustub va tizimlari shakllangan. Biroq hammasining asosida ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi ranglar hosil qilish uslubi yotadi. Yetti xil kamalak (spektr) ranglarni bir-biri bilan aralashtirish orqali 280 dan ortiq rang tuslanishini hosil qilish mumkin.²⁴

Tabiatdagji barcha ranglar **xromatik** (spektr ranglar, ya'ni eng toza ranglar) va **axromatik** (-grekcha «krangsiz», degan ma'noni bildiradi) (oq, qora, kulrang) rang larga bo'linadi.

Xromatik ranglarning tabiiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- rang tusi – rangning shartli belgisi (qizil, ko'k, sariq, havo rang va hokazo). Ranglar nomi shartli yoki bitor buyum, o'simlik nomiga yaqinlashtirib beriladi: shaftolirang, limonrang, apelsinrang, gilosrang va hokazo;

Axomatik ranglar faqat oqishlik xususiyati bilan farqlanadi. Eng sof, toza ranglar spektr ranglar sanaladi. Oq aralash ranglar (havorang, pushtirang va b.) **pastel ranglar** deyiлади. Spektr ranglarga qirmizirang qo'shib ularni doira bo'ylab joylashdirilsa, ranglar doirasiga asosiy ranglar hisoblanadi, chunki ularda ko'k ranglar shu doiradagi o'zlariga qo'shni ranglar tusi ham, aralashmasi ranglar doirasidagi o'zlariga qo'shni ranglar oralik ranglar hisoblanib, ular bir-biriga qo'shni asosiy ranglarni aralashtirishdan kelib chiqidi.

Sunday qilib, oralik rang – rang doirasining tashqi halqasida suriq, yashil, ko'kish, binafsharang va hokazo joylashadigan oralik ranglardir.

Diametrlarning qarama-qarshi uchlaridagi ranglar qo'shimcha ranglar deviladi. Optik aralashuv natijasida ular oq rang hosil qiladi. Ranglarda bir-birini to'qroq ko'rsatish qobiliyati mayjud. Jumladan, yashil rang qizil rang yonida yashiroq, qizil rang esa qiziroq ko'rimadi.

Xromatik ranglarning garmonik birikmlari ikki, uch rangli, kamroq to'rt rangli birikmlari uchraydi. Ular rang doirasasi asosida tuziladi.

Ikki rangli birikmalar quyidagicha tuziladi:

- o'xshash ranglar – bu bir xil asosiy ranglardan hosil bo'lган, ya'ni ranglar doirasining bir choragidagi ranglar birikmasini tuzokil qiladi;

²⁴Ranglarga yashiringan sirur. – T.: Davr press, 2010, 17-b.

- kontrast ranglar – har xil ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining qarama-qarshi choraklaridagi ranglarning birikmasi; bu ranglar ranglar doirasining diametri bo'yicha joylashadi;
 - o'xshash-kontrast ranglar – bu bitta mushtarak asosiy rang va ranglar doirasining yonma-yon choraklardagi kontrast asosiy ranglari bor ranglar birikmasi, bu ranglar xorda bo'yicha joylashadi.
 - Uch rangli rang birikmalar uchburghach asosida tuziladi:
 - teng yon tomonli uchburghach asosida – bitta asosiy rang va ikkita o'xshash-kontrast ranglar; bu yerda asosiy rang aralashmagan;
 - teng yon tomonli uchburghach asosida – bitta asosiy rang va ikkita o'xshash-kontrast ranglar, bu yerda asosiy rang shu ranglarga kiradi;
 - teng yon tomonli uchburghach – ikkita o'xshash ranglar va bitta kontrast oraliq rang kiradi; - to'g'ri uchburghach asosida – ikkita guruh o'xshash-kontrast ranglar (kattellar bo'yicha) va bitta guruh kontrast ranglar (gipotenuza bo'yicha).
 - To'rt rangli monandli rang birikmalarini to'g'ri to'rburchak asosida tuziladi – to'rt guruh o'xshash-kontrast ranglar birikmasi.
 - Axromatik ranglarning ikki rangli birikmalarini quyidagicha tuziladi:
 - kontrast birikmaları – axromatik ranglar qatorida bir-biridan uzoq joylashgan ranglar birikmasi;
 - nyuans birikmasi – axromatik ranglar qatorida bir-biriga yaqin joylashgan ranglar birikmasi.
- Uch rangli axromatik ranglarning birikmalarini esa miqdor va sifat (oqishlik) jihatdan o'zaro turli nisbatlar asosida tuziladi. Ranglar birikmalarining uyg'unligi ranglar sifat va miqdoriga bog'liq.
- Jamiyatning rivojlanishi bilan rang – pigment va bog'lovchilarini ortib, rang ishlab chiqarish usuli rivojlanib borgan. Qoldorlik davrida murakkab ranglar (akovrel, tempora, enkaustika) texnologiyasi ishlab chiqilgan. O'rta asr oxirida moybo'yoq texnologiyasi paydo bo'lgan. Bu davrda ranglar tuslanisi ham ortib, awvalgi lokal, yassi rang o'mini nur, soya yordamida o'zgaruvchi, tuslanuvchi ranglar tizimi egallagan.

Buyumlarni to'laqonli hajmli ko'rinishida aks ettirish, fazoviy boliqni rang orqali o'zlashtirish kuchayib borgan.

XIX asrning 60-70-yillaridan yorqin (spektr) ranglarga yaqin ranglarni yonma-yon qo'yish asosida kartinalar yaratila boshtangan.²⁵

Ranglar kompozitsiyasida ranglarning barqaror kontrastligi hodisasi yuzaga keladi, ya'ni ular atrofdagi ranglar ta'sirida ko'rinishi o'zgaradi. Bunda xromatik va oqishlik kontrast bo'lishi mumkin. Atrofdagi ranglar ta'sirida rang oqishligi o'zgarishi oqishlik kontrasti deyiladi.

Atrofdagi ranglar ta'sirida rang tusi va to'qligi o'zgarishi xromatik kontrastini deyiladi.

Atrofdagi ranglar bilan o'zaro ta'sir bo'lмаган ranglar neytral ranglar deyiladi. Kulrang, ko'kimtir kulrang va boshqalar neytral ranglar to'fasiga kiradi.

Obyektiv borliq elementtarri: rang, ritm, shakl va boshqalarning inson fiziologiyasi, psixologiyasi, aqliy rivoji, min'naviyatiga ta'siri shubhasiz.

Tadqiqotchi olim M.Lisher ranglarning quyidagi mohiyatini bildirgagan:

– ko'k rang – samimiylik, vazminlik, tinchlantrish xususiyatiga ega;

– yashil rang – egiluvchan qizg'inlik xususiyatiga ega;

– qora rang – jablash, ezish, inkor qilish kabi xususiyatga ega.

Tadqiqotchi E.F.Bajin ranglarning boshqacharoq tavsifini taklif qiladi:

– qizil rang – nafrat, g'azab va quvonch;

– sariq – ajablaniш;

– jigarang – jirkaniш;

– qora – qo'rqish va boshqalar.

Tadqiqotchi Nasiba Yusupovning qarashlari ham qiziqarli: – qizil rang. Qizil Mars sayyorasining rangi, qadimda uni olovga mengashgan. U hayot rangi, shuningdek, zolimlarning rangi, deb sanalgan. Qizil rangga uzoq tikilish, uy jihozlarini bu

rang bilan bezash tavsija etilmaydi. U inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qizlrang nafaqat insonlar va ularning fe'l-atvoriga, balki ba'zi jonzodlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun qizil rang kiygan kishilar buqa, kurka va g'ozdan uzoqroq yurgani ma'qui.

– **sariq rang**. Qadimda sariq rangni «Xudo buyurgan rang» deb atashgan. U tilga rangga yaqin bolgani uchun «Quyosh rangi» deb atalgan. Sariq rang tanani tozalaydi, ko'z nurini yaxshilaydi, aqiliy salohiyatini oshiradi.

– **yashil rang**. Yashil rang o'simliklarning rangi bo'llib, insonlar uchun baxtsaodat ramzi sanaladi. U tinchlantiruvchi hamda yoshartiruvchi rangdir. Yashil rang yurak qon tomirlarini me'yorlashtiradi va asabni tinchlantiradi, bosh og'rig'ini qoldiradi.

– **siyohrang**. Siyohrang faylasuf va shoirtabiat insonlar rangi sanaladi. U uyqusizlikda tinchlantiruvchi xususiyatga ega. – oq rang. Oq rang yaxshilik va omad ramzidir. U insonni turli kasalliklardan himoyalaydi, aql va ongi boshqaradi.

– **qora rang**. Qora rang – yovuzlik, yomonlik timsoli. Ammo uning ijobiy tomonlari ham bor. Qora so'zi ulug', quadrati, kuchli ma'nolarida ham qo'llanadi.²⁶

Ranglar kishining emotsiyal holatini faollashtirishi, jonlan-tilishi (qo'zg'atish, ta'kidlamoq) yoki o'mmini to'ldirishi (yumshashish, darmonsizlash) mumkin.

Jumladan, xona, agarada sariq va siyohrang, ko'k rangga bo'yalsa, u jiddiy fikrashni talab qiladi. Qizg'ish va yashil rang tinchlik, sokinlik, bayramona kayfiyat bag'ishlaydi. Shuning uchun xonani bo'yashda juda e'tiborli bo'ilish kerak bo'ladi.

Psixologlarning maslahatiga ko'ra:

1. **Qizil va sariq ranglar** – kishiga yaxshi ta'sir qiladi, uni quvontiradi, kayfiyatini ko'taradi.

2. **Sariq, yashil, jigarranglar** – xonaga qulaylik kiritadi.

3. **Ko'k, siyohrang** – ko'tarinkilik, bayramona kayfiyat beradi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiyl o'rta ta'lim maktablarida sinf xonalarini charaqlagan ranglar bilan bo'yash maqsadga muvofiq emas.

Maktab hovlisi va xonalarini ham kerakli sanitariya-gigiyenik handa estetik tomonlariga e'tibor bergen holda bezash va qurish lozim, ya'ni dizayniga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchilar ranglardan tez va kuchli ta'sirlanadilar. Shuning uchun, sinf xonalarining to'g'ri bo'yalishi o'quvchilarning fuolligi va o'quv saboqlarini yaxshiroq o'zlashtirilishlariga sabab bo'lishi aniqlangan.²⁷

Ranglar kompozitsiyasining muvofiqligi ham alohida ahamiyat kash etadi. Jumladan, rang asosiy rol o'ymaydigan mozaika (maqsh san'ati), panno (devordagi katta rasm)larda, vitraj (sur'at solingan rangli oynalarda kompozitsion uyg'unlik jiddiy e'tibor talab qiladi. Real hayotda rang muhim omil sifatida qabul qilingan.

Umumiy o'rita ta'limg' maktablarining sinf xonalarida, laboratoriya, ustaxona va kutubxonalarida, shuningdek, ko'zga, diqqatga zo'riqish keltiradigan joylarda yorug'lik va yoritilganlik darajasiga melhatni yengilashibirish, kayfiyatni yaxshilash, charchashning oldini olish vositasi sifatida qarash lozim.²⁸

Shuningdek, interyer, ya'ni bino va inshootlarning ichki qiyofasi, badiy bezalishini yoritishda tabbiy yorug'lik manbalaridan to'g'ri va oqilona foydalanish ancha murakkab ish sanaladi. Sinf xonasiga yorug'likning chap tomonidan tushishi hamda xonaning bir tekis yoritilishiga e'tibor berish lozim.

Yoritilish darajasi me'yordan kam bo'lsa, koz zo'riqadi, charchaydi. Shuning uchun, maktab binosi devorlarini bo'yash ishlari ranglarning turli yoshidagi o'quvchilarga turlichayta'sir etishini hisobga olgan holda amalgalashish maqsadga muvofiq.

Ranglarning o'z o'mnida qo'llanilishi maktabdag'i ta'limg'-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishga qaratilganidek, ruhiy ta'sirchanlik ham o'quvchi uchun xuddi shunday quylaylik yaratadi.

Sinf devorlarini bo'yashda qo'llaniladigan asosiy ranglarning yorug'lik qaytarish xususiyati quyidagicha:

Oq rang – 85%, och sariq rang – 75%, och yashil rang – 65%, och ko'k rang 65%, kulrang – 55%, yashil rang – 52%, favorang – 35%, qizil rang – 13%.

²⁶Ranglarga yashirinigan siflar. –T.: Davr press, 2010, 62-6.

²⁷Ranglarga yashirinigan siflar. –Toshkent: Davr press, 2010, 63-5.

Bundan tashqari, sinf xonalarini bo'yashda deraza qarshisidagi devor rangining yorug'lik qaytarish darajasi – 60%, doska o'matilgan devor – 50%, deraza o'matilgan devor – 70%, pol esa – 30% bo'lishi eng ma'qul miqdor hisoblanadi.²⁹

Bunda yorug'lilik tushishi, isitilishi, shovqin o'tkazmasligi, ranglar uyg'unligi va hokazolarning e'tiborga olinishi shart.

Ergonomik shart-sharoitlar deganda o'quv faoliyati uchun qulay va optimal sharoit yaratish tushuniladi. Estetikada esa o'quv-chilarning estetik tarbiyasida ijodiy jarayonlarning faollahtiriluvu tushuniladi. Bunday shart-sharoitlar tegishli darajada o'quvchi-larning fiziologik, psixologik, intellektual va yosh xususiyatlarini hamda ranglar, shakllar, musiqiy, badiiy, ko'kalamzorlashtirilish kabilarning o'quv jarayonining tashkilashtirilishiha inobatga olinishi uchun yaratiladi.

Umumiy o'rta ta'llim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning jismoniy, psixologik, intellektual faoliyatini faollahtirishning obyektiv muammolari dizayn nazariyasi va ergonomikaga borib taqaladi, shuning uchun ushu soha olimlari K.I.Lazarev, V.Ya.Petruxin, S.T.Ilin, L.P.Bezmoxidina va boshqalarning ishlari ni o'rganishni tavsiya etamiz.

Ayrim ergonomic faktlarning kishi organizmiga ijodiy ta'siri muhitning estetik tashkilashtirilishiha bog'liq. Dizaynnning bu sohasi bo'yicha Yu.S.Lapin quyidagi vazifa-larni belgilaydi:

- sharoit, muhitning kompozition bir butinligini ta'minlash;
- predmetning yaratilishi va uning inson bilan o'zaro aloqasi;
- interyer va konstruksiyalarning ifodalananishi, rang tanlashidan foydalanish;
- kompozition ko'rinish yasashda badiylilik elementlaridan foydalanish;
- sharoitni yaxshilashda grafika elementlaridan, vizual kompozitsiyalardan foydalanish.
- Bu kabi vazifalar estetik muhit, shart-sharoit yaratish, maqsadida ijod qilinadi:
- muhitga ma'lum emotsiyonal yo'nalish berish;

– interyerini yangilash usullarini aniqlash.

Shunday qilib, o'quv-didaktik shart-sharoitlar quyidagi estetik sifatlar bilan tavsiflanadi: usub yo'nalishi, kompozitsiya, optimallik, funksionallik, ma'nodorlik, maqsadililik, mobililik, maktab sharoitining garmonik holati va boshhqalar.

Demak, umumiy o'rta ta'llim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirishda estetik-pedagogik shart-sharoitlar, omillarning roli katta.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi tafakkur ijodkorligini rivojlantiruvchi estetik-pedagogik shart-sharoitlarni biz quyidagi larda ko'ramiz.

1. O'quv dizaynerlik shart-sharoitlari:

- a) ergonomic shart-sharoitlar;
- b) estetik shart-sharoitlar.

2. Ijtimoiy-emotsional shart-sharoitlar:

- a) faoliyatga estetik munosabat;
- b) shaxslararo estetik munosabat.

3.Evristik-didaktik shart-sharoitlar:

- a) o'quv-tarbiya jarayonning evristik mazmuni;
- b) faoliyat natijasining estetik mazmuni;

4. Individual-ijodiy shart-sharoitlar:

- a) o'quvchining fiziologik, psixologik, intellektual qobiliyatini;
- b) tafakkur ijodkorligining garmonik, estetik, axloqiy, intellektual, shuningdek, pedagogning kasbiy sifatlari, estetik tashqi ko'rinishi kabilarni kiritish mumkin³⁰.

²⁹Ranglarga yashiringan sirlar. – Toshkent: Davr press, 2010. 64-65-6.

II BO'LIM. MEHNAT TA'LIMI DARSALARIDA BADIY KONSTRUKTORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI

2.1. Mehnat ta'limi darslarida badiy konstrukturlik faoliyatini tashkilashdirish

Badiiy konstrukturlik yoki badiiy loyihalash – badiiy ijod-korlikning bir turi bo'lib, u ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi, shaxsning estetik madaniyatini tarbiyalaydi hamda o'quvchining mehnat darslarida o'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, u badiiy didni rivojlantiradi, badiiy obrazlarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi hamda uning badiiy mehnat faoliyatini shakllantiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtiradi.

Badiiy konstrukturlik faoliyati, shuningdek, o'quvchilarning turli o'zaro aloqalarini mehnat faoliyatida modellasshtirish imkonini beradi, bu o'z navbatida o'quvchining sezgi tuyg'usini, mas'ulligini, guruhi talablariga bo'yishishga, jamoada ijodiy muhitni yaratishga, o'zaro yordam, talab normalariga riyoq qiliishga o'rnatadi.

Badiiy loyihalash jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktab-larinin boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamon va makondagi xayoliy harakatlari, tafakkuridan amaliyotga o'tish qobiliyat shakllanib boradi hamda ularni o'z faoliyatlarini takomillashtirishga o'rnatadi, harakatida aniqlik va tezkorlik rivojlanib boradi.

Badiiy konstrukturlik to'g'risida.

Badiiy konstrukturlik, ya'ni dizaynerlik, o'tgan asming 30-yillariga to'g'ri keladi.³¹ G'arbda yangi kasb – dizaynerlik kasbi shakllanib boradi, uning vazifasiga yangi mahsulotlarni sifatli qilib

ishlab chiqish, uning chiroylligi, sifati, amaliyligi, arzonligiga e'tbor qaratib, ramziy shakllarini chizish lozim bo'lgan.

Ilimiy adabiyotlarda konstrukturlik (loyihalash) ikki turga ajratildi: badiiy va texnikaviy.

Texnika konstrukturligida predmet va narsalarining material va funksional asoslarda ishlab chiqilishiga aytiladi.

Badiiy loyihalash predmetlarning quayligi, chiroylligi, o'zaro humohangligi bilan uning mazmunini to'ldiradi.

«Dizayn» tushunchasining ensiklopedik, izohli lug'atlarda, shuningdek, o'quv-metodik adabiyotlarda turlicha talqinini oldingi bohlarda ko'rib chiqdi.

Demak, dizayn – badiiy texnikaviy faoliyat mahsuli bo'lib, u mahsulotlar va predmetlar garmoniyasi, hamohangligini tashkil qiladi.

Dizayning ikki tomoniga e'tiborimizni qaratamiz:

– amaliy tomoni – hayotning amaliyot jihatlarini qanoatlanish, uni texnologik takomillashtirish, iqtisodiy va ergonomik tansurot qoldirish;

– estetik tomoni – hayotning go'zallik jihatlarini qanoatlanish, garmoniya, badiiylik, ijobilij his-hayajonini oshirish, estetik boyitish.

Amaliyotda o'quvchilarning konstrukturlik tafakkuri ularning turli elementlar konstrukturlik vazifasini bajarish jarayonida shakllanib boradi.

Mehnat darslarida o'quvchilarga badiiylik, go'zallikni biz o'z qo'shimiz bilan yaratishimiz mumkinligini aniq misollarda, narsalarni yasab ko'rsatib borishimiz kerak. Shunda o'quvchilarning badiiy konstrukturlik tafakkuri rivojlanib boradi.

Shu nuqtayi nazaridan predmetlarni yasashda badiiy konstrukturlik elementlarining har bir predmet, mahsulotda borligini ko'rinishib beramiz:

- shakl va rang birligi (hamohangligi);
- material va shakl mosligi;
- shakllining maqsadga muvofiqligi;
- kompozitsiya elementlarining o'zaro mosligi.

¹¹Dizayn san'atining paydo bo'lishi bo'yicha boshqacha filklar ham bor (qanang: A.P.Suhaymonov. «O'quvchilarni dizayn san'atining tarixi va nazariv asoslari bilan tanishutish». Xalq nashri, № 6., Toshkent, 2011, B.14-16.

Umumiy o'rta ta'l'm maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarning ushbu kompleks bilimlarning shakllantirishini biz badiiy konstrukturlik yoki **dizaynerlik bilimlari** deb atadik.

O'quvchilarini ko'rib chiqamiz.

Estetik tarbiya – boshlang'ich sinf o'quvchilarinin hayotda va san'atdagi go'zallikni sez bilish hamda go'zallik qonunlari assida atrof-olamni o'z badiiy-ijodiy faoliyatida qayta shakllantirishlari tushuniladi.

Mutaxassis pedagog-olimlar (G.S.Korotayeva, L.P.Pestonogaya, V.A.Suxomlinskii, S.X.Fayzullina, S.K.Annamuratova) hamda loyiha-chilar (N.P.Chuvarina) estetik tarbiyaning insomming tabiat, hayot estetikasi, mehnat jaryyonlariga ta'siriga ahamiyat berishmoqda.

Narsalar olaming boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'sir faoliyat jarayonida sodir bo'ladi. O'quvchilar xonadagi kichik o'zgarishlarni ham emotsiyal qabul qilishi, unga tez moslashidilar. Ular badiiy obrazli muhitni yaxshi ko'rishadi, ularni original ishlangan konstruktivalar, ranglar turli-tumanligi, narsalar har xilligi ko'proq qiziqitiradi.

Muhit, sharoit shakllanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi texnika estetikasi loyiha-chilaridan qulay, foydali, chiroylli narsalarni yasashni talab qiladi. Bunda barcha yasaqlan narsalarga ergonomic, iqtisodiy talablar bilan birga ularning shakl va rang, shakl va material, shakl va yasalish maqsadiga, mosligiga riyo qilish talab qilinadi. Ularning barchasini umumlashgan holda estetik talablar, deyish mumkin. Narsa-hodissalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining sezgi organlariga ta'sir qilib, unga nisbatan ma'lum munosabatlarni ham shakllantirib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining doimiy chiroyli predmet, narsalar bilan aloqasi ularda estetik didni shakllantiradi va estetik madaniyatni rivojlantiradi, naftosat olamiga mehrini oshiradi.

Yosh bolalarning ishlab chiqarish bilan aloqada bo'lmasligini inobatga olgan holda biz ularning doimiy aloqada bo'ladijan – yashash joyi, sinf xonasi, ko'cha, o'yin maydonachasi, shahar transporti, kiyim-kechagi, o'yinchoqlar bilan aloqasini o'rgandik.

Umumiy o'rta ta'l'm maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishi jaryayonida ularning nafaqat bilim, ko'nikma va malakalari o'zgarib, shakllanib boradi, baiki ularning umumiy xususiyatlari, dunyoqarashlari ham rivojlanib boradi.

O'quv-tarbiya jaryayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixik faoliyatning boshqa tomonlari ham o'zgarib boradi, ularning turli harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlari rivojlanadi, yangi qiziqish va mayllari paydo bo'ladi. Bu o'zgarishlarning umumiy va xususiyatini psixolog olimlar alohida ajratib ko'rsatishadi:

1. Shaxsiy yo'nalganlik.

2. Faoliyatning psixologik tuzilishi.

3. Tafakkurning rivojlanishi darajasi.

Bularдан tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilarida «ko'rib eslab qolish» tajribasini ham rivojlantrish lozim.

Shunday qilib, umumiy o'rta ta'l'm maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining quyidagi xususiyatlarini rivojlantrish lozim:

1. Ijodiy xayolini.

2. Eslab qolish idroki, xotirasini.

3. Faoliyatning maqsadga yo'nalganligini.

4. Mayhumi va konkret bilimlarni tahsil qilish, yo'naltirishni.

Umumiy o'rta ta'l'm maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning maxsus o'qitish jaryayonida hamda ijtimoiy muhit ta'sirida badiiy konstrukturlik bilim va ko'nikmalar shakllantirib horiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar oldiga texnik vazifalar qo'yilsa, ular aqlini ishlatsiga harakat qiladilar. O'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirish lozim bo'lgan konstruktiv texnik bilim va ko'nikmalarani aniqlab olishlari zarur:

- materialning xususiyati va uni yasashning elementlar texnologiyasini;
- metallga ishlov berishda ishlataladigan instrumentlarni biliishi va ishlata olishi;

– berilgan vazifani tahlil qilish hamda olgan bilimlarini analiyotda qo'llay bilishi.

O'quvchilar bog'cha hamda umumiy o'rta ta'l'm maktablarida ma'lum badiiy konstrukturlikning xususiyatlari, ahamiyati, narsalarning shakl va rang hamohangligi to'g'risida bilim va ko'nikmaga

ega bo'lib boradi. Bu bilimlar umumiyl o'rta ta'limg maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ranglarni his qilish, konstrukturik bilimlar hamda kompozitsiyalar tuzish bilim, ko'nikmalarining rivojlanishiga imkon yaratadi.

Shunday qilib, badiiy konstruktorlik bilimlarini yoshlidkan berib borish kerak, chunki u boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitining go'zalliklarini anglab yetishiga ko'maklashadi handa ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlanitiradi.

Umumiy o'rta ta'limg maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun narsalarni loyihalash³² bo'yicha faoliyat shakllari:

1. O'qituvchi korsatmasi bo'yicha loyihalash.

O'qituvchi navbat bilan detal loyihasini namoyish etadi, uning yasalish yo'llarini ko'rsatadi, unga ishllov berish tartibini va foydalanish jarayonini aytib beradi. O'quvchilar o'qituvchining harakatharini namuna bo'yicha qaytaradilar.

2. O'shatish bo'yicha loyihalash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchi bilan hamkorlikda mahsulotni yasab o'rgangach, mahsulotni o'zlarini mustaqil yasashlari lozim.

3. Namuna bo'yicha loyihalash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mahsulotni namuna bo'yicha yasaydilar, uning xususiyatlari, yasalish yo'llari, ishlatilishini o'rganadilar. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining loyihalash ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida bajarildi. Qiyinroq operatsiya yalarga namunadan foydalanish orqali o'tiladi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil faoliyatlarini uchun bu harkatlarning bajarilishi o'tish bosqichining muhim sharti hisoblanadi.

4. Shaxsiy fikri asosida loyihalash.

Loyihalashning bu usulidan boshlang'ich sinf o'quvchilari mayjud bilimlar asosida tayyor materiallardan foydalangan holda mahsulot yasaydilar.

5. Mansulotni yozma yoki grafik bayoni asosida yaratish.

Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari tayyor mahsulotning texnik talablari asosida (uning nima uchun tayyorlangani, qayerda ishlatilishi, materiali, umumiyl talablari, loyihalanishi) tayyorlashadi.

6. Sharoit bo'yicha loyihalash. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat shart-sharoitlar ko'rsatiladi, shu sharoitiga moslab mahsulot tayyorlanadi, uning amaliyatda qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi.

7. Jamoaviy loyihalash. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini jahshi bo'lib majburiyatlari bo'lingan holda mahsulotni tayyorlashdi va har biri o'zining elementi uchun javobgar sanaladi.

Biz quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining qog'oz bilan ishlash, loyihalash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Qog'oz bilan ishlashni loyihalashda quyidagi umumiy masalalar yechiladi:

- qog'ozni namuna bo'yicha tahsil qilish; qog'oz shakli, uning qilmlari, detallari ko'rsatiladi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida qog'oz bilan ishlash umumiy yo'llari shakllantiriladi;
- mahsulot yasashni rejalashtirish, o'z faoliyatini tahsil asosida nazorat qilish;
- o'quvchilarida loyihalashga ijodiy munosabatni shakllantiradi; ularga qog'oz rangini tanlash va uni bezashni o'rgatadi.

Loyihalash faoliyatining xususiyatlariga to'xtalamiz

Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy didini ko'ritishi juda muhim sanaladi: rangni sezish, tushunish, ritm, shakl va kompozitsiya hamda unga ifodalilikning berilishi.

Texnik loyihalashda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavjud bilimlar tizimini ro'yobga chiqarish, uni doimo takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Bunda loyihalashning yangi metod va yo'nalishlarini tanlash lozim bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oldiga muammoli vaziyatlarni qo'yib borish kerak. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy izlanishiga, aqliy iqtakurini ishlatishga to'g'ri keladi va natijada o'xshash metod va yo'llar tonlanadi hamda amaliyotda sinovdan o'tadi.

Loyihalashga bunday tizimli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z kamchiliklarini biliishi va to'g'ri munosa-

³² Qurang: «O'quvchilarning dizayn ijodkorligini shakllastirish», – Toshkent, 2012.

batda bo'lishga, tahlil qilishga yo'naltiriladi va ularning aqliy faolligini oshiradi.

Loyihalash faoliyatining natijasi yasalgan predmet, mahsulotida ko'rindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shuni tushuntirish kerakki, inson yasagan barcha predmet, narsalarning ma'lum shakli, kompozitsiyasi, rangi bor bo'llib, ular chiroyligi va beo'xshov, go'zal va xunuk, yumshoq va qattiq, egiluvchan va shaksiz bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z mehnatining mahsulini qanday bo'lishi, uning qulayligi, qanday ko'rinishda bo'lishini tasavvur qila bilishi lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat darslarida o'qitishda ularning nafaqat mehnat qilishi, balki yasagan mahsulotining chiroyligli, kompozitsiyasi simmetriyasini bilishga ham o'rgatish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'zi yasayotgan buyumming maqsadga muvoifiqligi, qulayligi, ishlatalish quayligini tasavvuridan o'kazishi lozim. Shuning uchun estetik tab - predmet shaklining soddaligi uning go'zallik darakchisi ekanligini bildiradi.

Loyihalash jarayoni ikki bosqichdan iborat:

- xayolga keltirish jarayoni;
- uni amalga oshirish jarayoni.

Xayolga keltirish jarayonida bo'lajak amalga oshiriladigan faoliyat xayoldan o'tkaziladi, loyihami bajarish uchun nima ishlari qilishi, amaliy faoliyat ketma-ketligi xayolan ko'rib chiqiladi. Faoliyat ketma-ketligini ko'rib chiqish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ayrim narsalarini ijod qilishiga to'g'ri keladi, bu esa o'z navbatida ularning fikr doirasini kengaytiradi.

Bu jarayonda boshlang'ich sinf o'quvchilari narsalarni tahlil qilish, umumlashtirish, baho berishga o'rgatiladi.

Loyiha masalalarini yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari tahlii qilishga o'rganadi, ularning sharoiti, muhitini biladi va mustaqil qaror qabul qiladi, kelgusi ishlarini rejalash tirishga o'rganadi.

Loyihalashga o'rgatish metodlari.

1. Turkum obrazlarning bir yo'l bilan yechilish tahlili

Bir xil yo'l bilan yasalgan qator narsa, predmetning namuna sifatida keltirilishi, ularning umumiyligi tayyorlash va yasalish yo'llarini ko'rsatib berish imkonini beradi. Turkum narsalar tahlili boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda diqqatni jamlashga yordam beradi. O'quvchi o'quvchilarini bir xulosaga olib keladi: «chizmalarini o'qish», «yo'llarni ko'rish» va ular bilan nima va qanday qilishi, «gapirishi»ni – (egish, qayrirish, kesish, yasash va hokazo) o'rgatishi lozim.

Turkum mahsulot tahlilida o'quvchi yakuniy natijani aytmaydi, unga boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlarini kelishlari lozim. Qog'ozdan uy yasashda quyidagi taklif qilinadi:

- bir xildagi uyning har tomonida derazasi (balandligi, kengligi) hamda har xil rangda (bolalar kerakli rang tanlashadi) bo'lsin;
- har xil rang va balandlikdagi uylar (baland, past) yasashda bolalar rang va uzunliklarni o'zlarini tanlashadi;
- har xil balandlik, rang va kenglikdagi uylar (bolalar ham bolandlik, ham rang, ham kenglikka e'tiborini qaratadilar) yasash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday ishlash bo'yicha ko'nikma hosil bo'lgach, ularidan narsalarini tayyorlash yo'llarini tahlil qilib berish so'raladi. Mashqlar ham bosqicha-bosqich muroakkablashib boradi. O'quvchi qog'ozdan tayyorlangan hayvon shokllarini (kub, konus, brus shakllarda) boshlang'ich sinf o'quvchilari e'tiboriga havola etadi. Ular bu shakllarning tayyorlanish yo'llariga qarab ajratib chiqishadi. Keyin ular ranglar hamda razmuri bo'yicha ham ajratishadi va hokazo. Shu yo'l bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari individual ishlashga ham o'rgatib boriladi. Shu kabi mashqlarni plastilin yoki loy bilan ishlashda ham ko'ratish mumkin.

Hadiy mehnatda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarini yasa-
joni narsa sifatiga befarq bo'lmaydi. Ularni yomon yasalgan figura quvvatlanirmaydi. Sifatsiz yasalgan narsasini o'quvchi buzib, yiltib, sindirib tashlaydi.

Oqliona harakatlarni shakllantirish metodlari:

- ko'rsatish;

– tushuntirish.

Tushuntirish va ko'rsatish (namoyish etish) samarali bo'lishi uchun o'qituvchi:

- o'zi samarali harakat algoritmini bilishi;
- uni takomillashtirish yo'llarini tushunishi;
- o'rganilgan harakatni boshqa narsaga, materialga «ko'chi-rish»ni bilishi;

– tushuntirish va ko'rsatishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni inobatga olishi lozim.

Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tibori ko'pincha harakat natijasiga qaratilgan bo'ladi, ular qanday yo'llar bilan bu harakat bajarilshiga e'tibor bermaydi. Shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining e'tiborini qanday boshqarish yo'llariga qaratish, shuningdek, instrument va qo'llar harakatiga e'tiborni jalb qilishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu borada uchraydigan qiyinchiliklar sirasiga ularda yetishmaydigan nazorat, e'tiborli bo'llishlikni keltirish mumkin. Shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat xarakteri bilan uning natijasi o'rtasidagi aloqaga e'tiborini qaratishi lozim. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z harakatlarini nazorat qilishga ham o'rgatib borish kerak.

2. Oraliq natija va o'z-o'zini nazorat qilish tahlili

Oraliq natijani tahlil qilish o'quvchini harakatlar ketma-ketligiga amal qilishga o'rgatadi. Oraliq natijaning tahlili o'quvchilarini o'zini-o'zi nazorat qilishga o'rgatishida qo'l keladi. O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakatlari taqqoslagan holda ularni o'zini nazorat qilishga o'rgatadi, buning uchun u o'quvchiga har bir oraliq taylorlangan mahsulot orasiga rangli qog'oz yoki boshqa narsa solib qo'yishni maslahat beradi hamda har bir oraliqda taylorlangan material bir-biri bilan solishtiriladi, kamchiliklari aniqlanadi, yo'l qo'yilgan noto'g'ri harakatlari belgilab olinadi. Ko'nikma oshib borishi bilan xato kamayadi nazorat qilishni o'quvchining o'zi amalga oshiradi.

3. Yasamadagi bajarilmay qolgan ish tahlili

Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kamchiliigi yaqqla ko'rindisi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini yasagan narsadagi kamchiliklarni tez payqashi va ulami tuzatish yo'llarini ko'rsatib berishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z harakatlarini o'zi nazorat qilib borishga o'rgatish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini birinching kamchiliklarni o'zinikiga nisbatan tez ilg'aydilar.

4. Faoliyat natijasining tahlili yoki pedagogik baholash

O'quvchilar yasagan buyum albatta badiy loyihalash vazifasining qay darajada bajarilganligi, uning originalligi, ma'nodorligi nuqtuyi nazaridan baholanishi lozim.

Baholashda quyidagi talablarغا amal qilish lozim:

- o'quvchining o'z qo'lli bilan yasagan buyumi baholanadi;
- o'quvchining rivojlanishi darajasiga qarab baho tabaqalohirilgan holda qo'yiladi;
- harakat natijasini baholash, boshqa o'quvchilar yutuqlariga qurab baholamasligi kerak;
- baholash jaryonini shunday tashkillashtirish kerakki, unda o'quvchilarining o'zlarini faol ishtirot etsin.

5. O'yin usuli

O'quvchining konstruktiv, asosli vazifalarni bajarishida o'yin usullari qo'llaniladi. Natijada xato-kamchiliklar kam bo'llishi uchun personajlarning xatti-harakati doimo nazoratda bo'ladi, to'g'rilab beriladi, savollar bilan murojaat etish mumkin, o'z faoliyatini o'quvchilar shu tariqa to'g'rilab olishadi. Ertak qahramonlarining imbehini o'quvchilar o'quvchilarining nisbatan to'g'ri qabul qillahadi.

O'yin jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z xatolarini to'g'rilab borsalar oxirgi natija sifat jihatidan yuqori bo'ladi, bu ularni quvvontiradi va o'zlarida ishonch hissini sezadi.

Narsa yasash (tayyorlashning) 4 bosqichi:

1. Mehnatni rejalashtrish. Tadqiqotchi I.I.Budnitskaya bunday rejalashning uch jihatini ko'rsatdi:

- bajariladigan ish ketma-ketligi;

- vazifani bajarish yo'llarini izlash (variantlari).

Nusxa tahliliida to'xtalamiz. Har bir mehnat obyekti ikki qismda tahlil qilinishi lozim:

- obyektning ustuvor tomonlari va uni mustaqil idrok qilish;

- idrok jarayoniga pedagogik rahbarlik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining obyektni mustaqil idrok qilishlari jarayonida o'qituvchi ularga savol bermaydi, o'quvchilar o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar, shundan so'ng o'qituvchi tayyorlangan mahsulotga yanada e'tibor bilan qarashni takif qiladi va quyidagi savollarga javob berishni so'raydi - «tayyorlangan mahsulot yoqdimi? Uning go'zalligi nima?».

G.P.Kalinina nusxaning tahliliida uming estetik tahlilini idrok qilish va aniqlash uchun quyidagicha savol berishni takif qiladi:³³

- predmetning shakli qaysi geometrik shakllarni eslatadi?

- ushbu shaklni go'zallik nuqtayi nazaridan qanday tasniflash mumkin, u qanday xususiyatga ega?

- mahsulotni tayyorlashda qanday materialdan foydalananilgan, nima uchun?

- u mahsulot (predmet) go'zalligini ko'rsata biladimi?

- material fakturasi, ma'nodorligi to'g'risida nima deyish mumkin?

- go'zallik nuqtayi nazaridan ranglar hamohangligini aniqlang. U predmet shakliga qanday ta'sir qilgan? Predmet go'zalliga shaklining ta'siri borni?

- predmetning konstruktiv tuzilishi. Qanday detallardan tashkil topgan? Tuzilimaning bosh va ikkinchi darajali detallarini aytilb bereng. Detallarning bir-biriga hamohangligi, mosligi; -bu predmetda turli shakllarning o'zaro kesishuv qanday tuyg'u uyg'otadi?

O'quvchilarini obyektni umumiy handa qismlarini ko'rishga o'rgatish lozim. Yosh bolalarda e'tiborsizlik kuchli, ular bir necha predmetni birligida ko'ra bilmaydilar. Ular avvalo bir predmetni ushab oladilar qolganlarini unga qo'shib boraveradilar. Shuning uchun o'quvchilarini bu yosha bir necha predmetni birdaniga ko'rishga ham o'rgatib borish lozim.

Misol tariqasida uy rasmi tushirilgan kartinadan foydalanish mungkin. Kartinada xonaning interyeri, ranglar hamohangligi, predmetlar joylashuvvi kompleks tarzda berilgan. Bunda barcha elementlarni birligida ko'rish kerak va bu borliq birligining go'zalligini his qila olishga o'rgatishi kerak.

Olgan bilimini ko'nikmaga aylantirish uchun har xil materiallar va ularning xususiyatlari, rang va shakl to'g'risidagi maslahqlarni bajarib borish maqsadga muvoqi.

Bu psixolog olimlarimizning fikrlarini tasdiqlaydi:

- yosh bolalarni o'qitish jarayonida ularning faoliyat turlarini morakkablashtirib borish;

- ularning ta'lim va tarbiyasida har turdag'i harakatlarni bajarishga o'rgatish;

- yuqoridaq omillar, yaratilgan shart-sharoitlar mehnat darslarini tashkil qilishda pedagogik talablarini quyidagicha qurish bo'lmilgini ko'rsatadi;

- badiy loyihalash elementlarini dars jarayoniga tizimli kiritib borish;

- muammoli vaziyatlarni yaratish;

- erkin ijod elementlarini kiritish.

Shunday qilib, mehnat jarayonlarini rejalashtirish muhim shuniyatlardan kasb etadi, chunki taskillashtirish jarayoni estetik ma'nodor bo'lib, u inson ijodini yorqin namoyon qilish, o'z folyyatini loyihalash imkonini beradi.

2. Chizma tahlili (belgi ajratish).

Chizmalarida (bu to'g'rida boshlang'ich sinf o'quvchilariga qiladib qo'yish) predmet shakllining go'zalligi ifodalananadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shuni tushuntirib qo'yish lazimki, chizma-tasvirlar aniq, to'g'ri bo'lishi kerak, chunki unda predmet go'zalligi, shakl go'zalligi ifodalananadi.

³³Капитанова Г.П. Использование элементов личности на уроках труда // Начальная школа. 1989, №9, 28 с.

Chizma-tasvirlarni hamisha aniq va tartib bilan ehtiyyotkorona, chizma instrumentlaridan to'g'ri foydalangan holda ifodalash lozim.

Chizma tahlilida uch narsaga e'tiborni qaratish lozim:

- buyumanning asosiy detallari;
- mehnat jarayonlari (operatsiyalari);
- chizmani tayyorlash texnikasi.

3. Materialga ishllov bersh, montaj, terish.

Ma'lumki, materialning xususiyatlarini bilmay turib, unga ishllov berib bo'lmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quv-chilarini material xususiyatlari bilan tanishtirishga alohida vaqt va joy ajratish lozim. Shundan so'ng boshlang'ich sinf o'quvchilarini materialni kesish, uni eshish, chiziqlar kesishuvni kabi operatsiyalarga o'retish lozim. Mahsulotni terishda uning shakli, estetik tomonlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladı.

2.2. Texnik estetikasining nazariy holati

Ma'lumki, dizayn nazariyasi «texnika estetikasi» nomini oldi. U qator muammolar bilan bog'langan bo'lib, sanoating ijtimoy, iqtisodiy, ergonomic rivojlanishi hamda mahsulotlarning iste'mol qilinishi, shakkalanish qonuniyatları, shuningdek, rassom-loyihachining ijodiy ishlash tamoyil va metodlari bilan shug'ullanadi.

Estetik mo'ljalga olingan, niyat qilingan loyiha mohiyati natijasi sifatida qarash kerak. Uni joriy qila borib konstuktur-loyihachi predmet shaklining maqsadga muvoqiligi, tartibga solingan chizmalar garmoniyasi, rang elementlari ham-ohangligiga erishadi.

Mahsulot mukammalligi uning axborot shakkllanganligini taqoz qiladi. Mahsulot shakliga qarab, uning loyiha asosini aniqlash mumkin.

Mahsulotning mazmundorligi materialning texnologik va dekorativ xususiyatlari asosida aniqlanadi. Mahsulot konfiguratsiyasi, fakturası, rangi uning qadr-qiymatini belgilaydi. Mahsulot shakl va mazmunining hamohangligi ma'lum kompozitsiya vositasida amalga oshiriladi.

Kompozitsiya – bu mahsulotning estetik tasnifi, tizimi va ketma-ketligi bo'lib, u mahsulotni tashkil qiluvchi element va qismalarning taskiliy alopasini ifodalaydi.³⁴

Shunday qilib, badiiy loyiha bu vazifa bu shaklining badiiy yechimini topishdir.

Dizaynda shaklining to'g'ri ifodalanishi mahsulot tashqi ko'rinishning oliv navi, ko'rki (stayling) sanaladi. Shakl – moddiy tushunchadir. U moddiylikning qator xususiyatlarga ega: hajmlilik, makonda joylashishi va harakatlanishi, geometrik tuzilishi, og'irlik, voz, qatinlik, mustahkamlik, egiluvchanlik, namlik va olovga e'hdamlilik kabi xususiyatlarga egadir.

Moddiylik xususiyatidan kelib chiqib, mahsulot o'zining tuzilishi va shakli bo'yicha kompozitsiya qonuniyatlariga bo'yusunadi.

Kompozitsiya – bu yaxlit tuzilgan asar bo'lib, uning barcha elementlari o'zaro garmonik bog'liqlik va birlikda bo'лади.

Kompozitsiyaning muhim shakkllantiruvchi kategoriyalari (vostitalari) quyidagilar:

- hajmi tuzilishiga ega va tektonikali (tektonika – arsitekturada bino qismalarning o'zaro joylashuvni tartibi);
- miqdor, ko'lam;
- mutanosiblik;
- ritm va metr;
- kontrast va nyuans (sezilar-sezilmas farq);
- simmetriya va asimmetriya;
- kolorit (ranglar uyg'unligi).

Hujumlari tuzilish – bu predmetning shakli va ichki tuzilishining o'zaro bog'liqligini estetik anglab yetish.

Taktonika – moddiy shaklining badiiy anglab yetilishi.

Metr – shakl tuzilishi bo'lib, unda bir xil elementlarning o'zaro bir maromdagi harakati.

Ritm – shakl tuzilishi bo'lib, unda elementlarning o'zaro ishlashuv va sekintashuv harakati.

Ritm – kompozitsiyaning xossasi bo'lib, u idrokrining psikologik o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqlikda. Predmetdan

yaxshi taassurot olish, uning tuzilish elementlарining to'g'ri taqsimlanishi, hajm, ranglar yaxlitligiga erishish lozim.

Kolorit – predmet xossasi bo'lib, u orqali, aytaylik, ranglar rang-barangligi orqali sezgi organlariga ta'sir qilinadi.

Kontrast – shakllar keskin qarama-qarshiliqi.

Shakllar qarama-qarshiliqida rangdan foydalaniladi. Kontrast ning yana bir ko'rinishi bu nyuansdir, ya'ni sezilar-sezilmas farq. Konstruksiyaning alohida detallarini ajratib ko'rsatishda bir xillikdan dochish maqsadida nyuansdan, ya'ni sezilar-sezilmas farqdan foydalaniladi.

Nyuans – shakl elementlарining o'zaro munosabati bo'lib, unda shakllar va ularning elementlari bir-biriga o'xshashligi orqali yaqinlashtiriladi.

Kompozitsiya tamoyillariga to'xtalamiz.

1. Kompozitsiya elementlarini to'plash:
 - bir turdag'i belgilarni birlashtirish: shakli, rangi, tuzilishi, sifati;
 - kompozitsiyadagi bir xilliklarni ajratib ko'rsatish;
 - kompozitsiyaga har xillikni qo'shish, u bosimni kuchaytiradi;
 2. Material, detal, rang, shakl tanlashda cheklash qonunini qo'llash (ya'ni uchdan ortiq elementni ko'llamaslik qonuni).
 3. Kompozitsiya asosi – simmetriya.
 4. Elementni guruhlash, ya'ni to'plangan material 2-3 elementni o'zida mujassam qilishi mumkin.
 5. Guruhlarning erkin harakati.
 6. Guruhlarning o'zaro teng huquqligi va tobelligi.
 7. Guruhlarning o'zaro aloqasi – ritm, liniya, plastikasi.
 8. Hajmilitik, bo'rttirib ko'rsatish, istiqbolning rang, o'chum, shakl rivoji bilan ifodalanishi.
 9. Optik muvozanatni saqlash – katta-kichik, og'ir-yeng'i, yorug'-qorong'i va hokazolar.

10. Predmetlarni tabiiy sharoitga moslab joylashtirish: bo'yisi, harakati, o'sishi va boshqalar.

11. Tajriba – ijodda muvaffaqiyat garovi³⁶.

Tashqi shakl yaxlitligi va butunligini ko'rib chiqamiz.

1. Tashqi shakl cheklanganligi va yaxlitligi.

2. Mutanosiblik va ritm. Badiiy loyiҳada mutanosiblik – yaxlitdag'i barcha qism va elementlarning mutanosibligi. Ritm – ayrim elementlarning almashinuvni.

3. Mutanosiblik (keng ko'lamlilik). Bu predmetning kattaligi va bu kattalik to'g'risidagi bizning tasavvurimiz.

4. Plastiklik (mafislik, egiluvechanlik). Bu shakl xossasi bo'lib, u orqali biz predmetning tashqi ko'rinishiga baho beramiz, oyana va burchakli shakllarga ajratamiz. Ko'p hollarda bir predmetda aylana va burchakli shakllar kompozitsiyasini ko'ramiz.

5. Jo'shqinlik va turg'unlik. Shaklning tashqi ko'rinishi harakati eslatsa jo'shqin hisoblanadi; agarda predmetning tashqi ko'rinishi sokinlikni bildirsa, turg'un hisoblanadi.

6. Yengillik va ko'lamlilik. Shakl yengil hisoblanadi, agarda uning tashqi ko'rinishi yengillikni eslatsa, ko'lamlilik agarda predmetning tashqi ko'rinishi ko'lamlilikni, miqyosining kattaligini bildirsa, shuningdek, kompozitsiya yasashda geometrik shaklni ham inobatga olish kerak:

1. Simmetriklik (uyg'unlik) va uyg'unlikning yo'qligi. Tekislilik shakli uyg'un sanaladi, agarada uning tashqi ko'rinishi tekislilikka mos kelsa; agarda uning teskarisi bo'lsa – mutanosiblikning, uyg'unlikning yo'qligini (asimetriyasini) bildiradi.

2. Shakllarning o'zaro nisbati. Har qanday predmet ma'lum o'chamga ega. Shunga qarab uning katta-kichikligini aniqlaymiz. O'cham insonda ijobiy yoki salbiy munosabatni uyg'otishi mumkin.

3. Hajmning fazoviy tuzilishi. Har qanday predmet monand ravishda uch o'chamga ega: uzunlik, kenglik, balandlik.

Biz uni sezamiz: agar balandlik va uzunlik kenglikdan katta bo'lsa, bunday figuralar frontal to'g'ri yo'naltirilgan figuralar yoki

³⁵ Капитана Г.П. Использование элементов личности на уроках труда // Начальная школа, 1989, №9
25 с.

³⁶ Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию (под ред. Саккулиной Н.Н.) – М.: Просвещение, 1979, 25 с.

yapaloq figuralar deyiladi. Agarda predmetning barcha o'chamlari har xil bo'lsa, bunday figuralar fazoviy yoki hajmli deyiladi³⁷.

Idroknig fazoviy shakl va rang xususiyatlarini ko'rib chiqamiz

Idrok jarayonining dastlabkisi predmetlarning shaklini tahlili qilishdan boshlanadi, bu taxminiy harakat bo'lib, ular kishining amaliy harakatlari bilan bog'langan. Keyinchalik rivojlanish jarayonlari kechadi, unda amaliyotdan tadqiqotchilikka o'tiladi, obyekti o'rganib chiqilgach, amaliy harakatlarga o'tiladi³⁸.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bola 9 oyligdayoq assiy rang va shakllarni ajrata boshlaydi. Bola makkab yoshiba yetganida, endi u ranglar, shakl katta, kichikliklagini predmetlar bilan yaxlitligini tushunadi. Makkabgacha va boshlanguch siftda narsalarini rangi, shakliga qarab «yoqdi-yoqmad» tamoyili asosida ajratilibadi. Shunday qilib, bolaning bu yoshiba rang bilish sezgilarini rivojlangan bo'ladi.

Ma'lumki, kompozitsiyalar yasashda ranglar muhim roli o'yinaydi.

Rang – ko'z bilan material xossasini baholash, ko'zning idrok qilinayotgan narsa va hodisalarning rangini ajrata olish qobiliyati.

Rang – shaklning muhim sifati, uning emotsiyal-psixologik tili.

Narsalar shaklning rang xossalari orqali o'zgartirib yuborilishi mumkinligini bilib qo'ygan yaxshi. Masalan, sariq rang narsalarni balandroq ko'rsatadi. Oq va sariq ranglar uning yonidagi qorong'iroq ranglardan baland ko'rsatadi. Qizil rang kunduzgi yorug'likda obyektlarni insonga yaqinlashganday ko'rsatsa, kechki payt esa chuqurlashgandek taassurot qoldiradi. Och ko'k rang obyektni bizdan qochiradi, kechki payt yaqinlashtiradi. Yashil rang barcha ranglar ichida eng murakkabi. Sariq, pushti, qizil ranglar hammaga qorong'i taassurotni beradi.

Siyohrang, ko'k va yashil – sovuqlik; qizil, ko'k ranglar – iliqlik; ko'k, yashil sovuqlik taassurotni beradi.

Mutaxassislar ranglarning «baland ovozli – past ovozli»larini, «quruq – ho'l»larini «og'ir – yengil»larini, «harakaatdagi – qotib qolgan»larini, «tinchantriradigan – qo'zg'altiruvchi»larini ham aniqlashgan.

Ranglarning bir-biriga mos (garmoniya) va mos kelmaslik (disgarmoniya) jadvali:

Garmoniya.

Disgarmoniya.

Qizil:

– yashil, ko'k, qizil rang, ko'k-yashil, sariq-oltin;
– siyohrang, kulrang, qizil-sariq.

Pushti:

– to'q qizil, kulrang, jigarrang;
– qizil, qora, qo'ng'ir rang.

To'q sariq (opanževiy):

– ko'kish - osmon rang, yashil, siyohrang, jigarrang, oq;
– qizil.

Jigarrang (korpecheniy):

– kulrang, oltin rang, ko'k yashil tus bilan, och jigarrang;
– to'q qizil, to'q sariq rang va binafsharang.

Ko'k:

– qizil, kulrang, oltin qizil va to'q qizil;
– yashil, oq binafsha, pushti, jigarrang.

Siyohrang:

– oltin jilva, sariq, to'q sariq, yashil;
– qizil, g'ishtrang.

Oq binafsha rang:

– qizg'ish, kulrang, yashil, och siyohrang;
– ko'k, g'ishtrang, to'q qizil, oltin jilva, pushti.

To'q qizil:

– yashil, ko'k-yashil, kul rang, ko'k;
– och binafsha, qizil, oltin jilva, qizg'ish.

Kulrang:

– qora, yashil, qizil, ko'k, sariq, havorang, pushti;
– jigarrang, och jigarrang, sarg'ish.

³⁷Калинина Г.П. Использование элементов диафона на уроках труда // Начальная школа. 1989, №60.

28 с.

³⁸Психология дошкольника (хрестоматия). М.: Академия, 1997, 23 с.

Kompozitsiya tayyorlashda, uning qonuniyatlariga rivoj qilish kerak.

Tadqiqotimizning nazariy qismida kompozitsion tuzilish masalasini ham ko'rib chiqishimiz lozim, chunki kostyum tikishda ranglar masalasini ham o'rghanishga to'g'ri keladi.

Tashqi ko'rinish estetikasi

Inson kiyimi uyg'un birlikni, ya'ni «ansambl»ni tashkil qilishi lozim. «Ansambl» – fransuzcha so'z bo'lib, «o'zaro bog'liqlik, bo'lishmas birlilik» ma'nosini beradi.

Kostyum ansambl badiiy mo'jal asosida tayyorlanadi, unda detallar bir-biriga moslashtirilib, ma'lum birlikka, uyg'unlikka bo'yisdirladi. Konkret inson obrazini ochib beradi.

Ansambl yaratish asosida garmoniya tamoyili yotadi. Kiyim-kechak ansamblini yaratish asosida shaklining o'xshashligi va keskinlik – kontrast tamoyili yotadi.

Kostyum dizaynida turli geometrik shakllar turli-tumanligi yotadi, lekin baribir yaratilgan buyum umumiy, but, tugallangan ansambl taassurotini berishi zarur.

Ansambl asosini kostyuming katta bo'lagi yoki muhim psixologik rol o'ynovchi qismi tashkil qiladi. Qolgan barcha elementlar mana shu katta yoki muhim qismga bog'langan, bo'yusun dirilgan bo'lishi shart.

Ansambl shakllanishi uchun ko'p qatlamlilik va ko'p qismllik xos bo'lib, unga qattiq o'zaro bog'liqlik hamda barcha qismlardan bir vaqida foydalanish xosdir³⁹.

Ansambl bosh kiyim bilan yakunlanadi va u inson individualligini ta'kidlaydi. Bosh kiyim shakli kostyum siluetiga, chiziqlariga, konturlariga mos kelishi lozim, shuningdek, u yuz tuzilishi, og'iz chiziqlari hamda yelka kengliklariga ham mos tushushi kerak. Masalan, siindr shakkidagi shlyapa bostirib kiyilsa – sirilikni, yuqoriga ko'tarib kiyilsa – ochiqlikni, cheti qayrilib kiyilsa – yoshihikni ko'rsatadi, ta'kidlaydi⁴⁰.

Biz tashqi ko'rinish estetikasi qonuniyat – kostyum kompozisiyasiga yetib keldik.

«Kompozitsiyay»⁴¹ so'zi lotincha bolib «binoan birlashtirmoq, qo'shamoq, ulashmoq» ma'nosini beradi. Bu so'zni kostyuma bog'laydig'an bo'lsak, unda uning barcha elementlarini bir butun qilib bir-biriga bog'lash obrazi tushuniladi.

Kostyumi chiroli qiluvchi elementlar

Shakl, material, ranglar hamohangligi. Bunda bir qonuniyat hor – kiyim ixcham, amaliy hamda chiroli, bejirim bo'lishi kerak.

Kiyim ikki funksiyani bajaradi – estetik va amaliy.

Kostyuming shakli deganda biz, uning zamон va makonda alohida qismlarining uning yaxlitligi bilan aloqadorligidir.

Kostyuming shakli deganda biz, uning zamон va makonda (woljanuvchi modeli tizimini va uning elementlari ko'p qavalligi) tuzilishga ega ekanligini hamda inson figurasi va muhitga, sharoitiga bog'liq ekanligini tushunamiz.

Shakli hammasidan yaxshi siluet ko'rsatadi. Siluetning inson figurensiga nisbatan (yopishib turuvchi, yarim yopishuvchi, erkin, yoki pasti qisqargan) hamda geometrik shakliga nisbatan (to'g'ri burchakli, trapetsiyali, oval shaklida, X-shaklda) aniqlanadi⁴².

Plastiklik – bir-biriga moslik (egiluvchanlik). Shakl qismani ming biridan boshqasiga o'tishi tushuniladi. Qayirmalar harakatish yo'lli xotin-qizlar ko'yagidagi qo'sh etaklar shakl «harakatinii» tashkil qiladi. Shakl tuzilishida chiziqlar muhim o'rin tutdi. Kostyum tikishda loyhachidizaynerlar turli chiziqlardan foydalanishadi.

Gorizontal, yotiq chiziqlar mahsulotni keng ko'rsatadi, ular turjani to'liq, to'la, timch, sokin ko'rsatadi. Tik chiziqlar mahsulotni uzun hamda uni mustahkam, ishonarli ko'rsatadi. Egilgan chiziqlar harakat taassurotini beradi.

³⁹ Ефремова Л.М. И модно и красиво // Зестами поведения – М.: Искусство, 1985, 11 с.

⁴⁰ Дочин-матери. Проза, стихи, публицистика (сост. Никулина М.П.) – Свердловск: Среднеуральское книжное издательство, 1986, 45 с.

To'g'ri hamda egik chiziqlar sokinlik, vazminlik hissini beradi; turli radiusdagi egri chiziqlar – o'zgaruvchanlik, harakatchanlik, xavotir tuyg'usini beradi.

Kompozitsiya shaklini simmetriya va asimmetriya prinsipi asosida ham yechish mumkin.

Materiallarning har biri o'zining sifatiga, xususiyatiga ega; jun-yumshoqlik, paxta – xira, jitosizlik, ipak – yaltiroqlik.

Kiyimga solingan katta rasm uni kichraytirib ko'rsatsa, kichik rasm – kattalashtirib ko'rsatadi.

Qizil ko'yakdag'i oq detal yashilimon tus beradi. Kiyim shakliga uning rangi ham ta'sir qiladi.

Kiyimning rangi to'g'ri tanlansa u kishining quvontirishi, dayg'uga boitishi, yosh ko'rsatishi mumkin.

Rang kishida ma'lum assotsiatsiya uyg'otadi. Mutaxassis-larning fikricha, ranglar assotsiatsiyasi quyidagicha bo'lishi mumkin: issiq, sovuq, yengil, og'ir, chiniqiruvchi, olg'a intiluvchi, qo'z-g'atuvchi, ezzuvchi, tinchlantiruvchi, qizil, to'q sariq, sariq, yashil, och ko'k, siyohrang, to'q qizil, oq, och kulrang, to'q kulrang, qora⁴⁰.

Badiiy-loyihaviy bilimlar

Mehnat ta'limi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash maqsadida dizaynerlik bilmlaridan foydalaniildi.

Estetik tarbiya – bu insonning sezish, idrok etish, hayot va san'at go'zalligini anglash, atrof-muhitni go'zallik qonuniyatlar asosida qayta qurish va undan badiiy ijodiy faoliyatida foydalaniish tushuniladi.

Mutaxassislardan, pedagog-olimlar loyihachi-mutaxassislar estetik tarbiyaning insonning tabiatda, hayotda, jamoat va mehnat jarayonlaridagi o'miga alohida ahamiyat berishmoqda.

Mehnat jarayonlarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga atrof-muhitning ta'siri hamisha kuchli bo'lgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zları o'qiydig'an sinf xonaning jibozlari, narsalarining joylashuvini ziyraklik bilan kuzatishadi va undagi yangilik va o'zgarishlarni juda tez sezishadi.

Muhit, sharoit shakllanishi qonuniyatlarini o'rganuvchi texnik estetika loyihibachi-mutaxassislar oldiga chiroysi, foydali, qulay, arzon narsa, buyumlarning barcha turlariga bir xil talab qo'yiladi – shakl va rang, shakl va material, shakl va keraklik darajasi va hokazo.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining chiroysi, go'zal predmetlar, buyumlarni bilan doimiy aloqasi, ularda estetik tab va estetik madaniyat, nafosat va go'zallikka qiziqishini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisining shakllanish jarayonida, uning nufuzat bilim, ko'nikma, malakasi oshadi, balki uning shaxs ilstatidagi sifatlari ham rivojlanadi, takomillashadi.

Umumiy o'rta ta'lum maktablarida ta'lum-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlanadi, uning ruhiyatida o'zgarishlar sodir bo'ladi, ancha murakkab harakatlarini hujarish qobiliyati oshadi, shu tariqa uning qiziqish va motivlari shakllanib boradi.

Bundan tashqari, ta'lum-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'rish xotirasasi, «ko'rish tajribasi», ko'rgan narsani boshlash taassurotlari rivojlanib boradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshligidan boshlab:

1. Badiiy xayol surish.
2. Ko'rish idroki, ko'rish xotirasi (ya'ni ko'rib idrok qilish, ko'rib xotirada saqlash).
3. Bir maqsadga yo'nalganlik, uni maqsad o'zgarishiga qarab o'zgartirish qobiliyati.
4. Mayhum va aniq bilmlarni tahlil qila bilishi kabi shaxs niftularini rivojlantirib borish kerak.

Shaxsning shu kabi xususiyatlarini ta'lum-tarbiya jarayonida shakllantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy loyihalash bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlaniradi, ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi.

⁴⁰ Дозор-категорија. Проза, стихи, публицистика (сост. Никунина М.П.) – Суръоний. Среднеуральское книжное издательство, 1986, 15 с.

O'quvchilar bolalar bog'chasida, umumiy o'rta ta'limgak tablariда atrof-muhitdagi narsa-hodisalarни bilib oladilar, ularning shakl va ranglari to'g'risida tasavvurga ega bo'lib boradi, shu tariqa ularda badiiy loyihalash bilim, ko'nikma va malakalari rivojanib, takomillashib boradi. Bu bilmlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining rang bilish, loyihalash hamda kompozitsiyalar qurish ko'nikma larining rivojanishiga olib keladi⁴⁴.

III BO'LIM. O'QUVCHILARDА DIZAYNERLIK TAFAKKUR ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI VA METODIKASI

3.1. Ta'kidlovchi tajriba boshida o'quvchilarning elementlar dizaynerlik tafakkurining shakllanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlash

Umumiy o'rta ta'limgak maktablarida ta'kidlovchi tajriba orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavjud dizaynerlik tafakkuri darjasini aniqlab olindi. Biz bunda test orqali o'rganishning psixologik-pedagogik metodikasidan foydalandik. Ko'proq T.V.Bosha'yeva, T.O.Cherednyakova, T.P.Kashina, A.E.Padalko, T.N.Golovin ularning metodikalaridan ijodiy foydalandik. Maqsad – boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkurining rivojlanganlik darajasini aniqlash.

Ta'kidlovchi tajriba vazifasiga shunday savollar kiritildiki, ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangiliklarni tushunib yetishi, badiiy ijodkorlikka qiziqishning mayjudligi, rang to'g'risida bilmga egaligi, shakl, makon munosabatlari, narsalarning maqsadga muvofiqligi, narsaning kerakligi kabi bilim, ko'nikma va malakalari aniqlab olindi.

Tadqiqot maqsadi: umumiy o'rta ta'limgak maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkur elementlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash, ularning ranglar to'g'risida bilinga egaligi, makon munosabatlari, texnik estetika elementlarini bilishi, predmetlarning badiiy xususiyatlarini bilishi, narsalarning muqsadga muvofiqligini baholay bilishi, predmetlar foydaliligi va gormonyasini tushunib yetishi va hokazo.

Metodikaning tashkillashtirish rejasи.
Testing nomi.

Maqsad:

1. Ranglarni ajrata bilish assotsiyativ testi (T.V.Bashayeva metodikasi bo'yicha).

⁴⁴Ushbu bo'shma G.P.Kalinina, I.I.Budnitskaya, N.M.Komisheva, O.D.Kabenko, T.V.Kozlova, L.M.Yefremova, U.A.Voskodova, I.Subanova valarning ishlardan ijodiy foydalandik.

Rang tuslarini bilishi.

2. Ranglarni ajratta bilish testi (T.V.Cherednyakova metodikasi bo'yicha).

Ranglar jilosi va tusini bilish.

3. Shakl va makon tasavvuri bo'yicha bilimini amiqlash (A.E.Padalko metodikasi bo'yicha). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik figuralarini bilishi, ularning rang va shaklini bilishi, ulardan bezaklar yasay bilishi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnik estetikasi elementlarini bilishi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik faoliyati xususiyatlari, ularning fikrlash doirasining kengayishi, yo'q narsalarni xayolan tasvirlay bilishi.

6. Predmetlar guruhining badiiy xususiyatlarni bilishi va ularning ansamblga birlashishini tushunishi (masalan, «choy servizi» - Malinovskaya metodikasi bo'yicha).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining narsalar simmetriyasini bilishi, uni to'ldira bilishi.

Metodika №1.

Maqsad:boshlang'ich sinf o'quvchilarining rang tuslarni bilishini aniqlash.

Jihozlar:o'quvchilarga tanish bo'lgan predmetlarning oq-qora rangdagi rasmi, rangli fishkalar (belgichalar).

Vazifa: har bir predmetning rangiga mos fishkalarni qo'yib chiqing.

- olma
- apelsin
- sabzi
- jo'ja
- uzum
- quyosh
- karam
- qalding'och
- banan
- lavlagi.

Natijalar jadvalga osib qo'yiladi.

Xatolar soni.

Olgan ballari:

Olimova Zuhra

Narimanov Karim

Ochikov Olim

Abdullahayeva Muhabbat

Meliboyev Anvar

Safarova Saodat

Musurmonov Sarvar

Shukurullayeva Munisa

Qo'idoshev Farxod

Mahmudov Murod

Yusupova Tarmiza

Abdullahayeva Ra'no

Sifat tahlili.

1. Yuqori ko'rsatkich – birorta xatosiz.

2. O'rta ko'rsatkich – 1-2 ta xato.

3. Past ko'rsatkich – 3 va undan ortiq xato.

Ushbu sinfa boshlang'ich sinf o'quvchilarining rang bilishi o'rtacha ko'rsatkichga ega. Asosan – sabzi va lavlagini – qizil deb kato ko'rsatishdi, ular to'q sariq (sabzi) va to'q qizil (lavlagi) edi.

Demak, yuqori ko'rsatkich – 1 bola – 8%

O'rtacha ko'rsatkich – 7 bola – 54%

Past ko'rsatkich – 5 bola – 38%

Tahillar ko'rsatishicha boshlang'ich sinf o'quvchilari ranglarining tusida xato qilishadi, demak, mana shu yo'nalishda mashqlar bujarish lozim bo'ladi.

Metodika №2.

Rangi ajrata bilish testi (T.V.Cherednyakova metodikasi bo'yicha).

Maqsad: boshlang'ich sinf o'quvchilarining rang to'yinganligini, rang tusini amiqlashi.

Jihozlar: boshlang'ich sinf o'quvchilariga 8 tadan bir rangdagi kartochka beriladi, ular tus bilan farqlanadi.

Topshiriq:

- Kartochkalarni yorqinlashib borishi bo'yicha joylab chiq (ikki rang – yashil va qizil).
- 10 ta kartochka orasidan faqat 5 ta yashil tusilarni ajratib ol (5ta tus).

Natijalar jadvalga kiritib, osib qo'yildi.

– qizil

– yashil

– har xil

Xatolarning umumiy soni.

Mamarajabov Olim

Xolbo'tayev Erkin

Murodova Zulayho

Nazarov Sohib

Qosimova Zuhra

Begimqulov Qosim

Odilova Barno

Tursunova Umida

Shodmonova Sharofat

Saidov Zokir

Qurbanov Qodir

Xolmo'minova Saida

Son tahsil:

Yuqori ko'rsatkich (3 ball) – xato yo'q.

O'rtacha ko'rsatkich (2 ball) – 1-2 xato

Past ko'rsatkich (1 ball) – 3 va undan ko'p xato.

Sifat tahsil:

Yuqori – 1 kishi - 7,7%;

O'rta – 2 kishi - 15%;

Past – 9 kishi - 69%;

Ranglarni ajratish bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilan ishslash tavsija qilinadi.

Metodiqa №3

Maqsad: boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik figuralarini, ranglarni biishi va ularidan bezak yasay olishi.

Vazifa:

choynakni bezang, ranglar hamohangligi va chiroyliliga e'tibor bering.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilmuni sinash uchun savollar:

- Qanday geometrik figuralardan foydalandingiz?
- Shakllar joylashuvি qanday (simmetrik yoki har xil)?
- Qanday ranglarda foydalandingiz (kontrast, sovuq, issiq)?
- Ranglar hamohangmi?

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi:

Past (1 ball) – boshlang'ich sinf o'quvchilar geometrik figuralarini farqlaydi, ranglarni ajratadi, lekin ularni kompozitsiyada uyg'unlashtirma olmaydi, naqsh, bezaklar tuzishda ranglar hamohangligini adashtiradi, bu yo'nalishda o'quvching sezzisi iwojlanmag'an.

O'rtacha (2 ball) – o'quvchilar geometrik figuralarni farqlaydi, ranglarni ajratadi, ranglar bog'lamishini (hamohangligini) bilmaydi, ularni intuitiv yaxshi sezadi va to'g'ri qo'llaydi. Yuqori (3 ball) – boshlang'ich sinf o'quvchilar shakl va rang xususiyatlarini tushungan holda ishlataladi, ularni kompozitsiya shakllantirishda to'g'ri foydalananadi va tushuntirib bera oladi.

Natijalar tahsil.

Past darajada – 9 kishi – 70%;

O'rta daraja – 2 kishi – 15%;

Yuqori daraja – 2 kishi – 15%.

Umumiy natija yomon. Bu sinf bilan qo'shimcha ishslash kerak.

Metodiqa №4.

Texnik estetika elementlarini topish.

Maqsad: o'quvchi e'tibor qaratadigan texnik estetika elementlarini topish.

Tadqiqot metodi sifatida – suhbat tanlandi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- O'zingiz sevgan o'yinchchoqlarni aytинг. Nima uchun ular sizga yoqadi?

2. Sizning uyingizda qanday foydali narsalar bor. Ular nimasi bilan chiroyli?

3. Senga hovli yoqadimi? Hovlining nimasi ko'proq yoqadi?

4. Ko'chadagi qanday texnikalar senga yoqadi? Nimasi bilan?

Uch daraja aniqlandi:

Yuqori (3 ball) – boshlang'ich sinf o'quvchilari narsalarning foydali tomonlari, qulayligi, shakl go'zalligiga e'tibor qaratganlar. O'rta (2 ball) – o'quvchilar narsaning faqat go'zalligiga e'tibor qaratgan.

Past (1 ball) – o'quvchilar o'z javoblarini tushuntirib bera olmadi, uning foydasi, qulayligi, go'zalligini tushunmaydi.

Son tahlii:

Past daraja – 7 kishi – 54%;

O'rta daraja – 4 kishi – 30%;

Yuqori daraja – 2 kishi – 16%.

Javoblar tahilining ko'rsatishiga, boshlang'ich sinf o'quvchilarning yarmi o'yinchoqlarni predmetga o'xshatgan, ya'ni uning foydali tomonini ko'rsatib bergan. Ilkinchi yarmi – o'yinchoqlarning chiroyliliga e'tibor berishdi. Ikki o'quvchi o'yinchoqning quayligiga e'tibor qaratgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar javoblarining tahlli shuni ko'rsatadi, o'quvchilar o'zлари yashayotgan kvartira interyerida narsalarning chiroygiga, hovlidida va ko'chadagi narsalarning foydali tomoniga e'tiborini qaratishgan (tez yordam mashinasi odamlarni davolaydi, trutuar odamlarning loy-changdan saqlaydi, svetafor ko'chadan o'tishga yordam beradi).

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilar texnik-estetik bilimlarning ma'lum zaxirasiga ega, lekin ular narsalarning foydaliigi va chiroyliliiga e'tibor bermaydilar.

Metodika №5

«Kelajak partasi,,

Maqsad: boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizayner ijodkorlik qobiliyatini aniqlash, ularda predmetning xayoliy obrazini yaratish.

Vazifa: kelajak partasini loyihalash mumkin, u kelajakda paydo bo'lib qolar. Shunday parta yasashi lozimki, u juda foydali va juda chiroyli va qulay bo'isin. Bu vazifa orqali boshlang'ich sinf

o'quvchilarining tafakkur ijodkorligi rivoj topadi. Vazifa uch ball bilan quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholaniadi:

– maqsadga muvofiqligi;

– oqilona, to'g'ri;

– yangi va original;

– oxirigacha ishlov berilgan.

Maqsadga muvofiqligi – qo'yilgan maqsadga erishishi, maqsadga erishishda o'z mo'jalii bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantirish.

Agar o'zining harakati, mo'jalii qo'yilgan vazifaga to'g'ri kelmasa, maqsadga erishib bo'lmaydi.

Aqlilik (ratsionallik) – maqsadga erishishning to'g'ri yo'lli, qulay ijro, ijodiy faoliyatni amaliyotga joriy etish yo'lli, imkoniyati. Ixtiro o'zining go'zalligi va foydaliligi bilan tafsiflanadi.

Vangilik va originallik – masala yechimini topishning mostundar shakli, metodari, yo'llari.

Ishlanganlik – shakl tugallanganligi, mo'jal olingan ijodiy faoliyatdan emotsiunal qoniqish omili. Agarda ish ham shaklan, ham mazmuni bo'yicha tugallannmasa, emotsiunal qoniqish hosil bo'lmaydi.

Ish tugallangan, lekin shakkantirishda kamchiliklar bor, emotsiunal qoniqish to'liq bo'lmaydi.

Agar ijodiy ish ham shaklan, ham mazmunan tugallangan bo'lja, emotsiunal qoniqish hosil bo'ladi.

Darajalari:

Past – 1-4 ball – 8 kishi – 62%;

O'rta – 5-8 ball – 5 kishi – 38%;

Yuqori – 9-12 ball – 0%.

Sifat tahlii: ushbu topshiriq yangilik va originallik, maqsadga muvofiqlik va foydalilik darajasining pastligi bilan tafsiflanadi, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari oldiga qo'yilgan vazifaning qiyinligi bilan ajaralib turadi. Shunga qaramasdan o'quvchilarning bu vazifalarni bajarishga harakat qilishlari, ularning dizaynerlik tafakkurini rivojlantirish uchun badiiy imkoniyatining borligidan darak beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan bajarilgan ishning yangilik va originalligi past darajada bo'isada, ular tomonidan baiarilgan ishni shartli ijodiy, deb baholash imkonini beradi, chunki o'quvchilar ilgari bunga o'xshash vazifalarni bajarishmag'an.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari qog'ozda yasagan (rasmini chizgan) partalar bir xil, ko'philik partalar to'g'ri burchakli shaklda (ya'ni ular hozirda real bor partalarga o'xshash).

Yangilik sifatida parta atrofidagi turli quayliklarning qo'shilganligini ko'rish mumkin. O'quvchilar partaga yangilik sifatida kompyuter, kitoblar javoni, yoritish tizimi va partaning yig'ib qo'yilishi mumkinligini kiritishgan.

Ratsionallik darajasi past yoki o'rtacha, foydaliligi, quaylikligi, estetikasi juda past darajada ifodalangan. O'quvchilar intuitiv (ichki sezgi) darajasida go'zalllik hamda chizilgan narsaning garmoniyasini his qiladilar.

Shunday qilib, tajribalarimizning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday vazifalarni bajarishga, ya'ni mustaqil fikrlash, fantaziya yuritish, mavhum tafakkuri rivojlanmagan va unga tayyor emas, ularning xotirasida shunga o'xshash ishlar bajaganligi to'g'risida ma'lumot yo'q. Bunday tajribaga ega bo'lma- uchun ushbu topshiriqni bajara olishmadni. Demak, qo'shimcha mashqlar berish, bilim darajasini kengaytirish ustida ishlash lozim bo'ladi.

Metodika №6.

Maqsad: ansamblga yig'ilgan (bir butun) predmetlar guruuhlar- ning badiiy xususiyatlarini tushunib yetishlarini aniqlash.

Vazifa: choynakka uning rangi va shakliga mos keladigan piyola va baldoqli piyolalarni tanlash.

Ish 3 balli tizimda baholandi.

O'quvchilarning bilim darajasi:

Past (1 ball) – predmetlarning badiiy xususiyatlarini tushunishmaydi, tanlagan predmeti shakk va rang jihatidan to'g'ri kelmaydi. O'quvchida bu yo'nalihsida intuitsiya rivojlanmag'an.

O'rtacha (2 ball) – predmetlararo aloqani qisman tushunadi, predmetlarning yoki rangiga, yoki shakliga, yoki ornamentiga qarab qaratgan, chunki u ushbu predmetlarning ansambliga tegishli ekanligini ichdan his qiladi.

Yuqori (3 ball) – predmetlarni biladi va ularni rangi, shakli, ornamentiga qarab tez ajratadi. Umumiylik xususiyatlarini ongli qilinadi.

Past darajada – 8 bola – 62%,
O'rtacha – 3 bola – 23%;
Yuqori – 2 bola – 15%.

Metodika №7.

«Chizishni davom ettir (to'ldir)».

Maqsad: boshlang'ich sinf o'quvchilarining predmetlar simmetriyasini to'g'risidagi tasavvurlari darajasini aniqlash, tugallama- gan figuralarini tugatish.

Vazifa: uchtdadan qog'oz (21x30) beriladi va undagi tugallamanigan figuralarini (rasmlarni) to'ldirish tavsiya etiladi (kvadratlar, aylanalar, baliq, nimachi shakkllari).

O'quvchilarning ko'philigi bu vazifani yaxshi bajarishdi.

Tahlil:

yuqori daraja – 9 kishi – 70%.
o'rta darajada – 2 – 15%,
past darajada – 2 – 15%.

Son tahlil: o'quvchilar asosan o'rta darajada, ular simmetriya to'g'risida bilishadi, shaklga e'tibor beradi, gohida kichik xatoga yo'l qo'yishadi.

Shunday qilib, bilimlar darajasi tasnifiga o'tamiz:

Yuqori daraja – ranglar, uning tuslarini tanlashda xato qilmaydi. Tushungan holda shakl va rang xususiyatlarini aniqlaydi, ulardan to'g'ri, hamohang kompozitsiya tuzadi hamda to'g'ri tushunirib bera oladi. Predmetlarning foydalilik, go'zallik, quaylikini tushunadi. Ijodiy topshiriqlarni to'g'ri bajaradi. Ixtiro foydallilik va go'zallik birligida ifodalanganadi. Faoliyatida original materiallar, yorqin vositalardan foydalananadi. Ansambl obyektlarning joyini tez aniqlaydi, predmet badiiy xususiyatlarini tushunadi, ularning rang, shakl, ornamenti birligini biladi. Predmet simmetriyasini sezadi va

uni buzmaslikka harakat qiladi. Bajargan ishidan emotsiional qoniqadi.

O'rta daraja: rang tanlashda 1-2 xatoga yo'l qo'yadi, geometrik figuralarini ajratib oladi, lekin rang va shakl bog'liqligida xato qiladi, premetlarni baholashta faqat go'zallikni ko'rsatadi va uning yoqishini aytadi. Ijodiy ishlarni to'g'ri bajaradi, gohida o'z faoliyatini nazorat qila olmaydi. Ixtirosi chiroyli va quay bo'lib masada, lekin foydali. Ixtiroda standartlardan, shakklardan foydalana biladi, lekin yangi elementlar kiritma bilmaydi. Premetlar aloqasini biladi, premetlarni bitta belgi bo'yicha birlashtira oladi (rang, shakl, ornament). Premetlar, rasmlarda assymmetriyaga yo'l qo'yadi. Bajargan ishidan to'liq emotsiional qoniqmaydi.

Past daraja: rang tanlashda 2 tadan ziyod xatoga yo'l qo'yadi. Geometrik figuralarini bilsada, ularni kompozitsiyada to'g'ri shakllantira olmaydi. Intuitsiyasi rivojlannagan. Premetlarning go'zallilik, foydalilik, quaylik tomonlarini ajrata bilmaydi. Ijodiy ishlarni yaratishda o'z harakatlarni nazorat qila olmaydi. Tasvirlarda go'zallik va garmoniyaga e'tibor bermaydi. Standart shakklardan foydalananadi, yangi yechimlarni izlamaydi va istamaydi. Ansambl-dagi premetlar xususiyatlarini tushummaydi. Premetlarni tasodifan tanlaydi, na shakli, na rangi, na ornamentiga e'tibor bermaydi. Tuyor rasmga qo'shimcha kiritishda konturlarni buzib qo'yadi. Ta'kidlovchi tadqiqot jarayonida qator nazariv holatlar o'ztasdig'iini topdi.

3.2. Tajribaning shakkantiruvchi bosqichida dizaynerlik tafakkur elementlarini shakkantirish tizimi

Tajriba ishining vazifalari:

- atrof-muhit estetikasining boshlang'ich sinf o'quvchilarining fiziologiyasi, psixikasi, intellektiga ta'sirini tadqiq qilish;
- shakkantiruvchi tajriba jarayonida o'quv-tarbiya faoliyati uchun estetik va pedagogik shart-sharoitini yaratish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizayn tafakkurini badiiy loyihalash materiallari asosida rivojlantiruvchi ijodiy faoliyatni tashkilashtirish;

= ijodiy tajriba faoliyati natijalarini son va sifat jihatdan tahlili qilishi;

= boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy dzaynerlik tafakkurini rivojlantirishda badiiy-loyihalash hamda estetik-pedagogik shart-sharoitlarining o'mni va ahamiyatini oldindan aytib borish;

= dizaynerlik tafakkuri elementlarini rivojlantirishga doir metodik tuvsiya va masalalar (mashqlar) ishlab chiqish.

Shakkantiruvchi tajriba tadqiqoti dizaynerlik tafakkuri elementlarini rivojlantirishga imkon beradi. Ish badiiy-loyihalash materiallari negizida bajarildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkuri elementlarini shakkantiruvchi, rivojlantiruvchi nazariy ma'lumotlar aniqlab olindi.

Bu ma'lumotlar quyidagilar:

- = shakl va funksiya birligi;
- = shakl va material mosligi;
- = shakl va rang mosligi;
- = garmoniya vositalari bo'yicha bilimlar: nisbat va mutano-siblik, ko'lam va ko'lamlilik, simmetriya va asimmetriya, kontrast va nyuans, ranglar garmoniyasi.

Premetlarning yangi estetik jihatlarini bilib borish, o'qituvchi chilurdan maxsus bilim va ko'nikma talab qiladi, ularsiz o'qituvchi pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli olib bora olmaydi. Shular jumusiga, premet yoki premetlar guruhiда badiiylikni ko'rish, texnik estetika to'g'risidagi bilimga ega bo'lish, ularning ifodalanim voitnulari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida premetning konstruktiv tuzillishini shakkantirish, shakl va material mosligini mahsulotda iloddilay bilishga o'retish va rivojlantirishni bilish lozim.

Mehnat ta'llimi o'quv rejasiga quyidagi bilimlarni kiritish lozim:

1-sinf:

Rang, Asosiy va qo'shimcha ranglar.
Xromatik va axromatik ranglar. Ranglar doirasi. Ranglar ning nyuansli va kontrastli bog'lanishlari. Issiq va sovuq ranglar. Turli kompozitsiyalar yasashda ranglarning bir-biriga ta'sirini

inobatga olish zarur. Buning uchun esa ranglar garnoniyasi xususiyatlarini bilish kerak.

Ranglar garmoniyasini terish uchun asos sifatida ranglar doirasini olindi. Ranglar doirasini ikki qismga ajratib, bir tomoniga - qizil, to'q sariq, sariq va sariq-yashil ranglar, ikkinchi tomoniga - havorang-yashil, havorang, ko'k, ko'k-siyohranglar ajratiladi. Birinchchi tomondag'i ranglar va ularning tuslari (qizil, to'q sariq, sariq, sariq-yashil) issiq ranglar deyiladi. Ikkinchchi tomondag'i ranglar (havorang-yashil, havorang, ko'k, ko'k-siyohrang) va ularning tuslari sovuq ranglar deyiladi.

Har qanday rang o'zining - tusiga, och-to'qligiga, yorug'li-

giga, to'yinganligiga ega.

Shuning uchun eng yorug' ranglar bu oq rangga yaqin ranglardir.

To'yinganlik - ranglarning ma'lum darajadagi (quyug'i) to'qi, to'yingani.

Xromatik ranglar - spektordagi barcha ranglar va ularning tuslari.

Axromatik ranglar - oq, kulrang, qora ranglar.

Ranglar darajasidagi qo'shimcha ranglar asosiy ranglarga qarama-qarshi joylashgan. Shuning uchun ularni kontrast ranglar, deb yuritishadi. Agarda qo'shimcha ranglar turli miqdorda bir-biriga qo'shilsa, ular bir-birini rangsizlantiradi. Qo'shimcha ranglar yonma-yon tursa ularning to'yimliliği oshadi, shuning uchun qo'shimcha ranglarni bir xil miqdorda qo'shib bo'lmaydi, qaysidir bir rang asosiy rang bo'ishi kerak, qolganlari qo'shimcha ranglar bo'ladi. Har qanday rang to'q (qoramtil) ranglar orasida och ko'rindan, och ranglar orasida - to'q ko'rindan.

Ranglarning garmonik birligini bir xil ranglar tuslari orqali olish mumkin (eng yaxshi birikuv bu - 1/4). Bunday ranglar birikuviga nyuans birikuvi deyiladi. Chiroyli birikuvni qo'shimcha ranglar orqali olish mumkin - bu kontrast birikuv deyiladi.

Axromatik ranglar bir-biriga yaxshi qo'shiladi: oq qora bilan, qora kulrang va oq bilan. Bu ranglar har qanday rang bilan yaxshi qo'shiladi.

Endi «shakl», «material» tushunchalariga e'tiborimizni qoratamiz.

Shakl. Yassi va hajmli shakl.

Xususiyati: serqirralik, yumaloqlik, yangilik, simmetriklik, proporsionallik, ritimlilik. Oddiy va murakkab shakl.

Tadqiqotchi G.P.Kalinina quyidagi qisqacha tasnifi beradi:⁴⁵ har qanday shakl ikki tomonlama qaralishi mumkin: geometrik shakl, garmonik shakl. Shuning uchun shakl turli tasnifa ega.

Geometrik nuqtayi nazaridan shakl - bu bizga ma'lum bo'lgan geometrik figuralarining tekislik va makon (fazoda)da joylashuvri oylyana, kvadrat, uch burchak, silindr, shar va boshqa shakkarda. Ikki va undan ortiq oddiy shakllarni birlashtirish natijasida murakkab shakllar yassaladi.

Har qanday geometrik figura quyidagi tasnifa ega:

- simmetriya - asimmetriya;
- o'zar bog'lanish (kontrast-nyuans);
- hajmi-fazoviy qurilish (predmet uzunlik, kenglik va balandlikka ega).

Garnonik shakl tasnifiga o'tamiz:

- tashqi shaklning chegaralanganlik va butunligi;
- proporsionallik va ritm;
- ko'lamlilik (mashtablilik);
- eguluvchanlik (burchakli va silliqqlik, yumaloqlik);
- yengillilik va salmoqlik.

Kompozitsiya yasashda ham geometrik, ham garmonik shakl inobutga olinishi lozim. Material turlari va ularning xususiyatlari: tuzilishi, fakturasi, mustahkamligi, suvga chidamliliqi, bo'yalishta munosa-butli, egiluvchanligi.

Turli materiallardan mahsulot tayyorlash, uning birikish xususiyati⁴⁶.

⁴⁴ Зоотехническое воспитание младших школьников на уроках трудового обучения средствами изобразительного искусства (сост. Калинина Г.П.) - Свердловск, 1984, 19 с.
⁴⁵ Информационное воспитание младших школьников на уроках трущового обучения средствами изобразительного искусства (сост. Калинина Г.П.), - Свердловск, 1984, 22 с.

Ushbu bilimlar turkumining birinchi sinfdagi mehnat ta'limi darslarida foydalanish mumkin. Ikkinci sinfdagi olingan bilimlar mustahkamlanib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini materiallarning dekorativ, texnologik xususiyatlari bilan tashishni davom etadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy mo'jal to'g'risida ma'lum axborotlarni olib borishadi, ularni qanday yo'llar bilan o'zgartirish, ishlav berish mumkinligi – shaklni modellashtirish, kompozitsiya ritmi orqali ishlav berish mumkinligini bilib olishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkurini yangi yil, 8-mart, navro'z bayrami o'yinchoqlarini tayyorlash jara-yonida ham rivojlanТИrib borsa bo'ldi. Ular o'zi yasagan narsalarni dizayn mahsuloti, deb atamasalarda, lekin ular turli materiallardan hayotning turli jabhalari uchun turli chiroyli narsalar tayyorlash mumkinligini bilib oladilar.

Dars jarayonida bolalar go'zal narsalarni inson hayotining turli jabhalari uchun tayyorlash mumkinligini – qurilish ishlardida, fan va texnika, san'atda – bilib oladilar.

Ular yana shu narsani bilib oladilarki, tayyorlangan narsa, mahsulotda kiritilgan yangiliklar alohida qadrli bo'ldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayonida kompozitsiya tuzish qoidalalarini, rang tanlash mahoratini, narsalar, predmetlar garmoniyasini (hamohangligini), ya'ni go'zallik qonun va qonuniyatlarini bilib oladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zi mustaqil shakl va rang tanlash, ulardan chiroyli kompozitsiyalar tuzish uchun imkoniyat, shart-sharoit yaratib berish kerak. O'quvchilar tabiatdagi go'zal narsalar, holatlarni kuzatib borishlari uchun ularning kuzatuvchaligini ham rivojlanТИrib borish lozim. Kuzatish obyekti bo'lib predmetlar, narsalar, binolar, transport vositalari, magazin vitrinalari, muzey eksponatlari hamda tabiat hodisalarini bo'tishi mumkin. Shu maqsadlarda quyidagi ta'llim topshiriqlari shakllantiriladi.

Vazifalar:

- dizaynerlik kasbi bilan tanishuv;
- atrof-muhit, predmetlar olami bilan tanishuv, ular yangi g'oyalarga manba vazifasini o'taydi;

– kompozitsiya yaratish, turli shakllar yaratish, rang tanlash moslari bilan tanishuv;

– faol dizaynerlik tafakkur elementlarini shakllantirish, shuningdek, o'z fikr-g'oyalalarini eskizlar, rasmlar, loyiylar orqali ifodalashga o'rgatish;

– turli materiallarni bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish; – badiiy didni rivojlanТИrib.

Dars jarayonida san'at va dizayn tarixi to'g'risida suhbat, atof-muhitni o'rganish va kuzatuvcchanlikni rivojlanТИrib maqsad-holda ko'chaga, muzeysga, maydonchaga, bog'ga sayohat va unda shakl hamda rang birligi, material va shakl uyg'unligi o'rganiladi, shuningdek, musiqiy asarlar bilan tanishirib boriladi. Bundan tahlqari kinofilmlar, diapozitivlar ko'satib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushunarli tarzda quyidagi ma'lumotlar berib borish lozim:

– predmetning serqirraligi ranglar birikuvi, hamohangligini pasaytiradi, kontrastlikni kuchaytiradi;

– egiluvchanglik ranglar hamohangligini kuchaytiradi, oshiradi, kontrastlikni pasaytiradi;

– shakl yengiligi ranglar tusi birligini oshiradi, kontrastlik pausyudi;

– shakl salmoqligi kontrakt ranglar hamohangligini kuchaytiradi, to'q runqlar ranglar nyuansini, ya'ni bog'liqligini pasaytiradi;

– yengil va salmoqli shakllar birligi narsa, predmetni – mahsulotni, buyumni chiroyli ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga shu kabi nazariy bilimlar o'qitilgach, ularga qator mashqlar tizimi beriladi, ular o'quvchilarning dizaynerlik tafakkurining rivojlanishiga imkon tug'diradi. Bajariladigan mashqlarning asosini quyidagi ma'lumotlar qullashi lozim:

1. Har qanday shaklni shartli geometrik figuralarga bo'lib chiroysh mumkin.

2. Olamdag'i barcha predmetlar ma'lum materialdan yasalgan, huyod bo'lgan. Shakl tanlash materialga bog'liq.

3. Barcha predmetlar o'z rangiga ega. Ranglar zarurati.

Darsning boshida predmet shakli ustida ishlash lozim: umumiy konfiguratsiyali buyumi geometrik figuralarga ajratib tahlil qilish, oddiy shakllardan murakkab shakllar yasash hamda ranglarni va ularning tuslarini ajrata bilish va boshqalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim subbat, axborot, ular oldiga vazifa qo'yish orqali berib boriladi va ijodiy harakkatlardi amaliy ishlarni bajarish orqali mustahkamlanadi.

Savol va vazifalar avval oddiy bo'lib, keyinchalik murakkablashib boradi va ijodiy izlaniish darajasiغا yetkaziladi hamda ma'lum dizaynerlik muammolari yechiladi.

Jumladan, maqsadga muvofiq tushunchasini bilish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli qishki kiyimlarni kuzatish tavsya qilinadi. O'quvchilar kiyimlar ichidan kerakliharini ajratib oladi va savol mazmunidan kelib chiqib tushuntirib beradi.

Maqsadga muvofiqlikni quyidagi savollar orqali aniqlashtirish mumkin:

- nega pichoq, bolta shunday shaklda?
- ignaning bunday shaklda ekanligini tushuntiring?
- nega qishda biz qo'lqop kiyamiz? va boshqalar.

Yoki keraksizini chiqarib tashla:

- komplekt predmetlar ko'rsatiladi: kostyum, galstuk, ketalar, sport kostyumi;
- xonadan ortiqcha mebelni chiqarib tashla;
- nega ot-arava to'g'ri burchakli shaklga ega? Unda suyirilik; ya'ni shaklning kam qarshilikka uchraydigan bo'ishi kerakmi, bunday shaklni yasash osomni? Uni yog'ochdan yasasa ham bo'ladimi?

Olingan bilimlari orasida biz boshlang'ich sinf o'quvchilarning uslubga oid sezgirligiga, his qila bilishiga e'tiborni kuchaytiramiz va ularda badiiy loyihalash xususiyatining shakllanishiga e'tiborini qaratamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining loyihalash qobiliyatlarini rivojlanтирish uchun ularda quyidagi ko'nikmalarni hosil qilish lozim:

- tayyorlanadigan buyumi oldindan ko'ra bilish;

- uni boshqalar ham tushunadigan, o'qiydigan qilib tayyorlash (chertyoj, rasm);

- mahsulot maketini ko'rgazma uchun tayyorlash.

Loyiha, loyihalash – hali o'zi yo'q narsani tasavvurda yasash, demakdir. Masalan, uy loyihasi – bu o'ylangan, rasmi chizilgan uy, uyning o'zi aslida yo'q narsa. Uyni qurishdan oldin uni xayolan o'ylash va loyihasini chizish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda maxsus dars – o'yin darslar tashkilashtirish va unda loyihalashning nazariy elementlarini kiritish mumkin. Jumladan:

- gulzorning reja-loyihasini o'qi;
- uyning chertyoji bilan bitmagan uyni taqqosla;
- yana nima qurish lozim?

- Quyoncha, Zumrad va Qimmat uchun uy loyihasini chiz va boshqalar.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining sezgirligini rivojlanтирuvchi mashqlar bajariladi:

- qo'g'irchog'ingga paypoq tanla;
- paypoqni tugmacha, gul bilan bez;
- bolachaning kostymiga galstuk tanla;
- kostyumdan keraksiz narsalarni olib tashla.

Mehnat darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini rang tanlash san'atiiga ham o'rnatib borish lozim.

1. Ranglarni aniqlash va tayyorlash.

Mehnat darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini rangli qog'ozlardan o'qituvchi aytg'an rangli qog'ozni ajratib oladi. O'quvchilar undan naqsh yasash uchun turli geometrik hamda o'simliklarga oid ranglarni kesib olib, bezak yasashadi.

2. Asosiy va qo'shimcha ranglar.

Maxsus jadval orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga asosiy ranglar – ko'k, qizil, sariq ranglar – bu ranglarni boshqa ranglardan hosil qilib bo'lmaydi, shuning uchun ular asosiy ranglar deyiladi. Asosiy ranglarni bir-biriga qo'shib qo'shimcha ranglar hosil qilinadi.

3. Ranglar yorug'ligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar tabiatini, turli kartinalarni maxsus kuzattuvlari jarayonida ranglarning yorugi,

va qorong'u tuslari borligini bilib oladilar. Dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini rangli materiallarning asosiy rangi va tuslarini ajrata bilishga o'rghanadilar.

4. Iliq va sovuq ranglar, ularning tuslari. Dars jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini barglardan «kuzgi gilam» yasashdi (iliq ranglar) hamda «Qor odam» (Chetobuk) yasashdi (sovug ranglar).

5. Ranglar doirasi. Qo'shimcha ranglar.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ranglar doirasi bilan tanishtiradi. Sxemada ranglar ketma-ketligida ko'rsatilgan: qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havorang, ko'k, siyohrang. O'quvchilar ularga ma'lum bo'lgan asosiy va qo'shimcha, iliq va sovuq ranglarni aytilib berishadi. Shundan keyin boshlang'ich sinf o'quvchilarini doiradagi qarama-qarshi ranglar spektoriga e'tibor berishdi: qizil-yashil, ko'k-to'q sariq, sariq-siyohrang. Bu ranglar qo'shimcha ranglar deyiladi.

Shuningdek, o'quvchilar qo'shimcha ranglar (qarama-qarshi turuga) birgalikda yorug' kontrast rangga aylanishiga ham e'tibor berishdi va bu tajribalardan dekorativ narsalar yasashda foydalaniadi.

Gohida darslar uzyyligiga e'tibor qaratildi, ya'ni tasviriy san'at darsida berilgan vazifa – topshiriqlar mehnat darslarida davom ettiriladi. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining elementar dizaynerlik tafakkurining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Badiiy loyihalash ko'nkmalarini shakllantirishning mashqlar tizimi.

Mashq va vazifalar quyidagi talablar asosida tuzildi:

– mehnat ta'limi maqsad va vazifalari hamda reja mazmuni asosida;

– mashq va vazifalarning ketma-ket murakkablashib borishi asosida;

– vazifalar quyidagilarga e'tiborni qaratishni talab qiladi – kompozitsion birlik, funksional rang, shakl, metallning mahsulotga moslik darajasi, texnologiyasi (konstruksiya - qurilmaning manziligi, faoliyat yo'llarining mosligi) predmet va muhit birligi (stil);

– ta'limi taskil qilishda metod va usullar turli-tumanligi.

Ikkinechi sindfa quyidagi mashqlar tizimi tavsija qilinadi:

1. Ranglar doirasi bilan tanishish. Asosiy ranglar.

2. Bir, ikki shakl asosida kompozitsiya yasash.

3.Turli shakl va ranglar asosida o'zining shaxsiy kompozitsiyasini yaratish.

4. Bir, ikki shakl hamda 1-2 rang asosida o'zining shaxsiy kompozitsiyasini yaratish.

5. Mahsulot tayyorlashda ranglar kontrastligi bo'yicha bilingidan foydalanish.

6. Applikatsiyalar (qog'oz yopishtirish) tayyorlashda «simmetriya», «asimmetriya» tushunchalarini qaytarish.

7. Narsalarni ma'lum kayfiyat uchun yasash (Yangi yil, Navro'z bayrami).

8. Umumiyl konfiguratsiyani turli geometrik figuralarga ajratish bo'yicha mashqlar.

9. «Maqsadga muvofiq»lik tushunchasi. Mashqlar.

10. Loyihalash. Kelajak buyumlarini loyihalash, hali yo'q buyumlarini loyihalash.

11. «Uslub», «uslub birligi» tushunchasi.

12. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shakl, rang, ularning kususiyatlari bo'yicha bilim, ko'nkmalarini sinovdan o'tkazish (kompleks mustaqil ish).

Shakllantiruvchi tajribaning yo'nalishlaridan bira estetik-pedagogik sharoitlarning ketma-ket tashkilashtirilishi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkur ijodkorligining rivojlanishi shadidir.

Estetik-pedagogik sharoitlar o'quv-dizaynerlik faoliyatini yaratishdan boshlanadi va u boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur ijodkorligini rivojantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, maktabda amaliy faoliyatni tashkil etish uchun psixologik-fiziologik hamda ergonomik talablar bo'jorilishi lozim. Maktab o'quv-dizaynerlik faoliyatini tashkil qilishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini quyidagi yo'nalishlarda ishtiroy etishlari mumkin:

– fan sinflari interyerini shakllantirishda;

- bayramga kostyumi va dekoratsiyalarni tayorlashda.

Ijtimoiy-emotsional sharoitlar boshlang'ich sinf o'quvchilar hamda o'qituvchilar jamoalari orasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq. Bu yerda bosh rolni o'qituvchi o'ynaydi va uning mehribonligi, odobi, axloqi, estetikasi, tabi, intellekti, artistligi, tafakkur ijodkorligiga bog'liq.

Shuningdek, o'qituvchi muloqotning demokratik uslubini o'mnati, ya'ni ona va bola muloqotiga yaqin muloqot. Bunday muloqot o'zaro mehr, o'zaro ishonch, bir-birini tushunishiga asoslanadi. Bunday sharoitning, muhitning yaratilishi boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun ma'lum qulaylik tug'diradi, u o'zini himoyalangan sezadi, o'ziga ishonch paydo bo'radi, ijodiy erkinlik muhiti vujudga keladi.

Ijtimoiy emotsiyal muhit boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoasida qarama-qarshiliklar, konfliktli vaziyatlar, tajovuzkorlik kabi holatlarning oldini oladi va simfa, maktabda o'zaro va pedagoglar bilan do'stona muhitini yaratadi.

Ijtimoiy-emotsional muhit evristik-didaktik jarayonlarini tashkilashtirishda vujudga keladi va bu pedagogik faoliyatda turli ijodiy shakl va metodlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Shakllantiruvchi tajriba bo'yicha xulosalar.

Shakllantiruvchi tajriba jarayonida kompleks estetik-pedagogik shart-sharoitlar (o'quv-dizaynerlik, ijtimoiy-emotsional, didaktik-evristik individual-ijodiy) yaratildiki, ular faoliyat va jarayonlar hamda tafakkur ijodkorligining riwojanishiga imkoniyat yaratadi.

Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, agarida ta'kidlovchi tajriba jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ishlarida yangilik va originallik juda kamchilikni tashkil qilgan bo'lsa, shakllantiruvchi tajriba jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliigi oshdi, ularning ishlarida yangilik, originallik, ilg'or metod va shakllardan foydalanan kabi siljishlar kuzatildi.

Ijodiy ishlarni bajarishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlari ko'zga tashlandi. O'quvchilar yangi g'ayrat bilan yangi-yangi buyumlar tayyorlashdi. Darslarning barchasi o'yin tarzda o'tdi. O'yinlardan vazifaga chuquroq kirish mexanizmi sifatida foydalaniildi. Bu mexanizm (o'yin) boshlang'ich sinf

o'quvchilariga murakkab va qiyin vazifalarni qiziq va tushunari qilib yetkazishga xizmat qiladi, qiyin va murakkab vazifalarni yoritadi. Sinfda o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam muhiti hukm surdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini juft-juft bo'lib, guruh bo'lib, jamaoa bo'lib ishslashga o'rganib bordi.

O'quvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamaoviy ishslashga asta-sekinlik bilan o'rgatib bordi va bu juda qiyin vazifani uddalay oldi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi vazifalarni yechish rejalashtirilib borildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sezgi tajribasini orttirib borish. Chunki ijodiy muvaffaqiyat boshlang'ich sinf o'quvchilarining tajriba va taassurot zaxirasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ko'rib idrok qilish – rejamingning muhim komponenti edi.

Qator darslar «Yangi yilga tayyorlanayapmiz!» shiori ostida tashkilashtirildi. Bundan maqsad boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik g'oyalarini faollashtirish edi. Ancha qiyin va murakkab vazifalarni yechish esa o'quvchilarida dizayner ijodkorligi elementlarning shakllanib va rivojanib borayotganligidan dalolat beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliikkha o'rgatish nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiy dizaynerlik faoliyatini fiollashtiradi, balki ularning umumiy madaniyatini ham oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dizaynerlik tafakkuri elementlarini shakllantirish qisqa muddatli jarayon emas, balki bu sohada ko'p bosqichli dastur ishlab chiqilishi va o'quvchilarining maktabdagagi faoliyatini to'liq qamrab olishi lozim.

Mehnat ta'limi bo'yicha tayyorlanadigan dastur (dizayn ta'llimi asoslar) quyidagi tuzilish tamoyillariga asoslanishi lozim.

Dasturning tuzilish tamoyillari.

1. Umummadaniy (dunyoqarashli, axloqiy) yo'nalish tamoyilli. Bu tamoyil o'quvchilarda amaly bilmlar tizimini shakllantirishini taqozo qiladi; unda inson va u yaratgan madaniy muhitning tabiat va uning hodisalari bilan bog'liqligi, narsalar olamining ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar bilan bog'liqligini bildiradi.

Kurs mazmuni, shuningdek, shaxsning badiiy-estetik bilimlari kengaytirish, uning yaratuvchanlik imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

2. Umumiyyadan xususiyaga (axloqiy sifatlarini shakllantirish), xususiyidan umumiyya (konkret bilim va ishlash tarfibini shakllantirish).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat va san'atning emotsional ta'siriga juda chanqoq, shuning uchun ham ular dizaynerlik tafakkuri asoslarida yotgan murakkab falsafiy g'oyalarning ichiga chuqurroq kirib borishga ham qodirlar.

Shuning uchun dastur dizaynerlik masalalarini ko'rishda (estetik va funksional sifatlarining konstruksiya birlikda ifodalanishi, faoliyat texnologiyasi, rang va shakl birligi, materialning shaklga mosligi, kompozitsiyada turli shakllarning mayjudligi) umumfalsafiy yondashuv asosida «Tabiat – Inson – Predmetlar olami» muammosini hal qilish ko'zda tutilishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'l ishlari, ularning psixologiyasidan kelib chiqqan holda oddiydan murakkabga, xususiyidan umumiyyiga tamoyili asosida bajarishtirishda yaxlitlik.

3. Dizaynerlik tafakkurini shakllantirishda yaxlitlik.

Shaxs yakka, inson faoliyatining katta qismi ham yaxlit, ya'ni bir vaqtning o'zida turli komponentlarini qamrab oladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida konkret dizaynerlik tafakkurini bir-birdan ajratilmagan yaxlitlikda, kompleks holda shakllantirish lozim, chunki o'quvchi predmetni yasashda u yoki bu predmetga umumiyyining bir bo'lagi sifatida qaraydi va unda (umumiyyda) estetik, ijtimoiy-psixologik va boshqa o'zaro aloqalarni yaxlitlikda ko'radi.

4. Mazmun variativligi, mahsulot turli-tumanligi, o'qituvchi ijodi. Dastur maqsad va tamoyillar birligini inobatga olgan holda darsning konkret mazmunini ifodalash mumkin, unda regional, ijtimoiy-madaniy, aniq joy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tashkillashtirish tavsiya etiladi. Darslar soni ham o'zgartirilishi mumkin.

Bizning tadqiqotlarimizdan kelib chiqan holda quyidagi tematik reja taklif etiladi.

«Badiiy loyihalash» bo'limining tematik rejasi.

1-sinf.

Dars mavzusi.

Nazariy ma'lumotlar.

Amaliy faoliyat: qog'ozning tur va xususiyatlari to'g'risida laboratoriya mashg'uloti.

Qog'oz. Qog'oz turlari. Xususiyatlari: rang, rang olish xususiyati, suv yutish xususiyati, qattiqligi, egiluvchanligi, yaltiroqligi.

– qog'oz xususiyatini bilish bo'yicha tajriba;

– qog'oz kolleksiyasini tayyorlash.

2. Shakl berish va kompozitsiya asoslari.

Shakl-kartinalardan «quvnoq» narsalar yasash. Oddiy shakl. Yassi va qalin shakl. Detallar, bezash.

– qog'ozlarni yelmlash orqali turli narsalar tayyorlash.

3. Shakl. Yassi qog'ozni hajmlni figuraga aylantirish. – o'yinchaoqlarni qog'ozni egish, buklash va hokazolar orqali yasash.

4. Ritm. Ornament.

– geometrik elementlarda naqsh (gul).

5. Ritm. Geometrik figuralardan kompozitsiya yasash. Kompozitsiya, model, silueti (sharpasi, ko'rinishi).

